ISSN: 2181-3035



TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 12

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

15.11.2022

OPEN ACCESS

@TALQINVATADQIQOTLAR

- *Aniq fanlar
- *Tabiiy fanlar
- *Tibbiyot fanlari
- *Texnika fanlari
- *Iqtisod fanlari
- *Filologiya fanlari
- *Pedagogika fanlari
- *Arxitektura
- *Qishloq xo‘jaligi
- *Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- *San’at va madaniyat fanlari
- *Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

12-son 1-qism
15.11.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘QUVCHILARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS TADQIQOTINING O‘RNI

Zokirova Martaba Maxmashukurovna
Samarqand viloyati Tayloq tuman
62-umumta’lim maktab o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7310387

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda, matnni o‘qish va tushunish darajasini takomollashtirishda PIRLS tadqiqotining o‘rni haqida fikr bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: PIRLS, xalqaro, tadqiqot, kitobxonlik, baholash, savodxonlik, sifat, topshiriq.

O‘qish – axborot olish madaniyati bo‘lib, badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari, yo‘llari mavjud bo‘lib PIRLS tadqiqotining o‘rni beqiyosdir.

PIRLS - (inglizcha –Progress in International Reading Literacy Study) matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo‘lib, maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi mutaxassislar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega.

PIRLS dunyoning turli mamlakatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarining o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi.

Tadqiqotning xalqaro lug‘atiga ko‘ra, “o‘qish savodxonligi” - o‘quvchining matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, o‘qigan ma‘lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqatidir.

PIRLSda o‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur

bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma’lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarga ikki turdagi matn taqdim etiladi, badiiy matn va axborotli matn. Shuning uchun o‘quvchilar bilimi quyidagi ikki mezon asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish.
2. Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadida o‘qish.

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish;

- voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish;

- matnning umumiy g‘oyasini aniqlash;

- matn tarkibining elimentlarini ochib berish;

- qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish;

- asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his –tuyg‘ularini taqqoslash va qiyoslash;

- matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish;

- matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish;

- matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash orqali javob berish;

- matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

Adabiy kitobxonlik malakasini shakllantiruvchi yuqoridagi mahorat tavsiflari asosida boshlang‘ich sinf darsligidan Faxri Erdinchning “Rustam” hikoyasi uchun tayyorlangan toshiriqlarni ko‘rib chiqamiz.

1-topshiriq. “Rustam” hikoyasi kim tomonidan hikoya qilingan?

A) Rustam

B) Onasi

C) Otasi

D) Faxri Erdinch.

Mahorat tavsifi: matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish.

2-topshiriq. Faxri Erdinch nega Rustamga achindi? Izohlang.

Mahorat tavsifi: matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash.

3-topshiriq. Rustamning o‘ziga pul bermoqchi bo‘lgan kishiga “xuddi ozor chekkan qush kabi hurpayishining” sababi nimada? Izohlang.

Mahorat tavsifi: qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish.

4-topshiriq. Rustamning qishloqda amakisi bor, lekin nega unga yordam bermaydi.Nima deb o‘ylaysiz? Fikringizni bayon eding.

Mahorat tavsifi: voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish.

5-topshiriq. Rustam nega so‘ramasa ham o‘zi haqida ma’lumot berdi?

Mahorat tavsifi: qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish.

6-topshiriq. Rustam “turmaga o‘t qo‘yaman” deb otasiga aytganda nima uchun otasi ham yig‘lab, ham kulib qo‘ydi?

Yig‘lashining sababi:

Kulishinining sababi:

Mahorat tavsifi: matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

7-topshiriq. Rustamning otasi nima uchun qamaldi? Qamalishiga nima sabab bo‘ldi?

Mahorat tavsifi: matn tarkibining elimentlarini ochib berish.

8-topshiriq. Rustamning har bir so‘zida bolalarga xos bo‘lmagan nima sezilib turardi?

A) Fermerlik.

B) Duradgorlik.

C) Tadbirkorlik.

D) Shifokorlik

Mahorat tavsifi: matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish.

9-topshiriq. Rustamning yaxshi bola ekanligini unung qaysi gap-so‘zlaridan bilish mumkin?

Mahorat tavsifi: matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish.

10-topshiriq. Men matnga mana _____ larni qo‘shgan bo‘lar edim.

Mahorat tavsifi: matnning umumiy g‘oyasini aniqlash.

11-topshiriq: Menda _____taassurot qoldirdi.

Mahorat tavsifi: matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.

12-topshiriq: Men hikoyadan _____larni xulosa chiqardim…

Mahorat tavsifi: matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.

PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflaridan ko‘rinib turibdiki,

o‘quvchilar matnni nafaqat tushunishadi balki, matnda berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga o‘zining shaxsiy munosabatini bildira olish ko‘nikmasi, olgan ma’lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста» -Москва, 2007, 3-4 ст.

2. M.Mirqosimova. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –Toshkent. “Fan”. 2006.

www.kutubxona.uz.

www.arxiv.uz.

SENTOB - TABIAT MO‘JIZASI

Islomova Sevinch Botirjon qizi
Navoiy viloyati Navbahor tumani 7-maktab o‘quvchisi
Ilmiy rahbar: Ergasheva Gulnoza Nasriddinovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani 7-maktab targ'ibotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7310409

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning eng go‘zal joylaridan hisoblangan Navoiy viloyatining Nurota tumanida joylashgan Sentob qishlog'i haqida so‘z yuritiladi. Siz maqola orqali Sentob turizm qishlog'ining tarixiy yodgorliklari, tabiati, o‘simlik dumyosi, mahalliy aholisi hamda noodatiy joylari haqida bilib olishingiz mumkin. Aytgancha, siz uchun qiziqarli bo‘lgan Sentobdagi noodatiy tarzda joylashgan ko‘l haqida ma'lumot ham maqoladan o‘rin olgan. Qolaversa, ushbu tog'lar orasida joylashgan, mahalliy aholi istiqomat qiladigan uylarning deyarli hammasi toshdan qurilganganligi va uning ko‘hna tarixi xususida ham ma'lumotlar aytib ôtilgan.

Kalit so‘zlar: Tabiat, Sentob, Nurota tumani, petrogliflar, tog‘, Fozilmon ko‘li.

Tabiat-ajoyib mo‘jiza. Uni insoniyatga bergan va berayotgan ne'matlari cheksiz. Tabiatga muhabbat, bog'liqlik shunday tuyg'uki, so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Ayniqsa, insoniyat bilan shunday bog'langanki, ba'zida ushbu bog'liqlikdan inson tabiatni his qila olmay qoladi. Uning keng bag'riga butun borliqni sig'dirayotganligi saxiyligidan dalolatdir. Ba'zida odamzot shundan o‘rnak olishi muhimroqdir. Aslida, tabiatni sevish, uni his qilmak demakdir. Uning go‘zalligi, jilvakorligi insonda beg'uborlik tuyg'usini uyg'otadi.



Shunday joylar borki, hech qanday go‘zallik teng kela olmaydi, hech qanday


musiqa ushbu yerdagi xotirjamlikni yaratolmaydi, butun dunyodagi eng qimmat atirlar ham bu joyning iforiga yetolmaydi. Bunday joylar O‘zbekistonda juda ham ko‘p. Masalan, O‘zbekistonning Navoiy viloyati, Nurota tumanida joylashgan Sentop qishlog'i. Bu qishloq o‘z tabiati bilan butun dunyoni lol qoldirmoqda. Ushbu tabiatni



tomosha qilish va bahramand bo‘lish uchun dunyoning har bir burchagidan sayyohlar tashrif buyurishmoqda. Shuning uchun ham bu yer keyingi o‘rinlarda Sentop turizm qishlog'i deb atala boshlandi. Qishloq Nurota tumani markazidan 120 km uzoqlikda bo‘lib, o‘zining qadim tarixini saqlab qolgan.

Tog‘lar orasida joylashgan ushbu qishloqda hayrat bilan tomosha qilish mumkin bo‘lgan joylar ko‘p. Baland tog‘lar, tik qoyalar qishloqning tabiatiga o‘zgacha go‘zallik bag‘ishlagan. Mazkur qoya toshlarda V-VI asrlarga oid petrogliflarni, XI-XVIII asrlarga oid toshga o‘yilgan yozuvlarni ko‘rish mumkin.

Shuningdek, tog‘ tepasida ko‘hna qo‘rg‘on qoldiqlari bor. Mahalliy aholining aytishicha, ushbu qo‘rg‘onda yaqin yillargacha insonlar istiqomat qilgan. 3 ming nafarga yaqin aholi yashaydigan qishloqning asosiy ichimlik suv manbai “Ako” chashmasi hisoblanadi. Suvi sira kamaymaydigan ushbu chashma ancha chuqurda joylashgan. Unga so‘qmoq yo‘l orqali tushib boriladi. Odamlar eshaklar yordamida chashmadan suv tashib ketishadi. Mahalliy aholining aytishicha, qishloqning Sentop degan nomi ham aynan ushbu yerning suvga serobligidan kelib chiqqan ekan.





Bu yerda keyingi yillarda sayyohlar uchun mehmon uylari tashkil etilib, hududning diqqatga sazovor joylariga turistik marshrutlar tuzildi.Oxirgi yillarda qishloqqa Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Gollandiya, Avstraliya, Shveytsariya, Belgiya kabi davlatlardan sayyohlar oqimi koʻpaya boshladi. Ular tarixiy joylarni tomosha qilishib, togʻ marshrutlariga borishadi.

Hududda buloqlar, koʻllar, sharsharalar, togʻ tepasida qoʻrgʻon qishlogʻi joylashgan. Qishloqning yana bir e'tiborga molik tarafi uning tog'lar oʻrtasida joylashganligi va shu bois uylarning koʻpchiligi ham toshlardan qurilganligidir.Yana shuni aytib oʻtish joizki, Sentobning eng diqqatga sazovor joyi dengiz sathidan 1 644 metr balandlikda, togʻlar ustida joylashgan Fozilmon koʻlidir. Uning uzunligi 300, kengligi 150 metr.Fozilmon koʻli buyuk rassom — tabiatning biz insonlarga betakror tuhfasidir. Qolaversa, mazkur koʻl oʻz bagʻrida koʻplab afsonayu rivoyatlarni saqlab kelyapti.





Bu goʻzalliklarni koʻrib, ularni kezgan insonning ona tabiatga boʻlgan munosabati, qarashi yaxshi tomonga qarab oʻzgarishi aniq. Sentop turizm qishlog'i shahardan uzoq masofada joylashgan boʻlsada, u yerda hayot qizg'in. U yerning tabiati bilan birga, insonlarining ham nurli chehralari, saxiyligi, mehnatsevarligi, samimiyligi insonni oʻziga tortmasdan qoʻymaydi. Bu yerga tashrif buyurganlar oʻzgacha tassurotlar bilan ortga qaytib ketishadi.

Haqiqatdan ham bu maftunkor mo‘jiza va aynan shu tabiatning mo‘jizasini ko‘rib bahramand bo‘lish ham o‘zgacha tuyg'udir. Bular tabiatning bizga bergan ne'matlarining hammasi emas albatta. Bu beminnat ne'matlar hali zamonlar oshsa ham huddi shunday tarovatini yo‘qotmaydi. Faqat biz tabiatni asrab avaylashimiz darkor. Zero, u bizning borlig'imizdir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.uzbekistan.travel/ru/o/sentob/
2. https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/nurata/sentob-village.htm
3 https://dzen.ru/media/id/6283699b3a273d4b2155456c/tadjikskii-kishlak-sentob-v-nuratinskih-gorah-uzbekistana-628381dafbb70f74a76efaa5
4. https://nuz.uz/obschestvo/43691-sentob-rayskiy-ugolok-polnyy-kolorita-dushevnogo-tepla-i-garmonii.html
5. https://ea-travel.uz/sentob-village-in-nurata

TERMINOLOGICAL SIGNIFICANCE OF INTERNET ABBREVIATIONS IN ENGLISH

Yoldasheva Odinakhan Saminjonovna
No. 1 vocational school, Fargona district
https://doi.org/10.5281/zenodo.7310421

Annotation: The Internet (or Internet) is an Internet protocol suite (TCP/IP) used by interconnected global system computer networks to communicate between networks and devices. The Internet includes many information resources and services such as interconnection, the World Wide Web of hypertext documents and applications (WWW), email, telephony and file sharing. However, “some could have multiple meanings depending on their context..

Key words: requirements, WWW (World Wide Web of hypertext documents and applications), internet, abbreviations, system, disk, type, display, input, row, storage.

Аннотация: Интернет (или Интернет) - это набор Интернет-протоколов (TCP /IP), используемый взаимосвязанными глобальными системными компьютерными сетями для связи между сетями и устройствами. Интернет включает в себя множество информационных ресурсов и услуг, таких как межсетевое взаимодействие, всемирная паутина гипертекстовых документов и приложений (WWW), электронная почта, телефония и совместное использование файлов. Однако «некоторые могут иметь несколько значений в зависимости от контекста.

Ключевые слова: требования, WWW (Всемирная паутина гипертекстовых документов и приложений), Интернет, сокращения, система, диск, тип, отображение, ввод, строка, хранилище.

Аннотация: Интернет (ёки Интернет) - бу тармоқ протоколлари тўплами (ТСП / ИП) глобал тармоқ компьютер тармоқлари томонидан тармоқлар ва қурилмалар ўртасида алоқа қилиш учун ишлатилади. Интернет ўзаро боғлиқлик, гиперматнли ҳужжатлар ва дастурларнинг бутун дунё тармоғи (WWW), электрон почта, телефония ва файлларни алмашиш каби кўплаб ахборот ресурслари ва хизматларини ўз ичига олади. Бироқ, «баъзилари ўз мазмунига қараб бир нечта маънога эга бўлиши мумкин.

Таянч сўзлар: талаблар, WWW (бутун дунё бўйлаб гиперматнли ҳужжатлар ва дастурларнинг Интернет тармоғи), интернет, қисқартмалар, тизим, диск, тип, дисплей, кириш, қатор, сақлаш.

Abbreviations come in several varieties. Both abbreviations and initial words are

abbreviations formed by combining the first letter of each word in a longer noun or phrase. Usually abbreviations and initialisms are written in all capital letters to distinguish them from ordinary words. The abbreviation is pronounced as a single word, not a series of letters. For example, NASA is an abbreviation. This means national aeronautics and space administration. Sometimes an acronym becomes so common that it becomes a simple word and people no longer think of it as an acronym. For example, the words scuba and laser appeared as acronyms (spontaneous underwater breathing apparatus and amplification of radiation with stimulated radiation, respectively). Initialisms are similar to abbreviations because they are formed using the first letter in the longer phrase of each word. The origins of the Internet began with its development, the replacement of packets, and research commissioned by the United States Department of Defense in the 1960s to allocate time to turn on computers.

The network of primary precursors, the ARPANET, initially served as the basis for interconnecting regional academic and military networks in the 1970s. Funding The National Science Foundation Network as a new backbone in the 1980s, as well as private financing of other commercial extensions, led to global participation in the development of new network technologies and the merging of many industries. In the early 1990s, the interconnection of commercial networks and enterprises began the transition to the modern Internet, and created a steady exponential growth as institutional generations, with personal and mobile computers connected to the network. Although widely used by the Internet, the academy introduced commercialization of its services and technologies in almost every aspect of modern life in the 1980s.

Many traditional means of communication, including telephony, radio, television, paper mail, and newspapers, are being reshaped, rescheduled, or even bypassed by the Internet, and new services such as email are being born. Internet telephony, Internet television, online music, digital newspapers and video streaming websites. Newspapers, books and other print publications adapt to website technology or reformed blogging, web channels and online news collectors. It has activated and accelerated new forms of personal interaction over the Internet, instant messaging, Internet forums and social networking services. Online shopping has grown dramatically for large retailers, small businesses and entrepreneurs, as these firms sell their “bricks and mortar” to a larger market or even sell goods and services completely online. From business to business and financial services Internet impact supply chains across all sectors.

There is no single centralized management of the Internet in either the technology program or the access and use policy; each component network sets its own policy. The redundant definitions of both bases are managed by the maintenance

organization in the Internet Protocol Address (IP Address) field and the Domain Name System (DNS).

The Internet, as a virtual space, is in many ways similar to a real space, and to find something on the network, you need to know the location of that thing. Say: nonsense, no address needed. We enter a word or phrase related to what interests us into Yandex or Google and select the desired sites from the list of search results.

Microcontroller (English Micro Controller Unit, MCU) is a chip designed to control electronic devices. A simple microcontroller combines the functions of a processor and external devices on a single chip, including RAM and or ROM. Basically, it is a single-chip computer capable of performing relatively simple tasks. It differs from a microprocessor in integrated integrated input-output devices, timers, and other peripherals. People on the planet speak different languages, do not know a foreign language, it is very difficult to read the texts in it. What are the ways to overcome the language barrier in site construction? For some time now, various electronic translators have been appearing and translating from one language to another.

It is no coincidence that we call the Internet, even if it is virtual, not a part of the living space, but a place with its own laws and traditions. The World Wide Web (the main part of the Internet) also has its own language, or at least jargon. It is very diverse, the number of words (phrases, concepts) is constantly increasing.

Autocode - is basically a programming language that is structurally similar to commands and processed data of a particular machine language.

Adaptive web design - is the design of web pages that ensures that the site is displayed correctly on various devices connected to the Internet and dynamically adjusts the given dimensions of the browser window. Rather, it is called a flexible layout of a website, not a design.

The purpose of impressive design - is the versatility of the site for different devices. It is not necessary to create separate versions of the site for some types of devices using sensitive web design technology to conveniently view the website from devices that fit different screen sizes and proportions (width / height).

An IT specialist - is an information technology specialist or simply a computer specialist

Account (English account - account) - a user account on a social network, forum or simply a site that provides some information about the user. Accounts are used to identify users and personalize the connection on the Internet. However, the information provided is usually not verified and may contain corrupted or imaginary personal information.

An algorithm - is a sequence of actions that leads to solving a task or achieving the desired result.

Software architecture - is the most important set of decisions on how to organize a software system:

• linking selected elements of structure and behavior to increasingly larger systems;

• The architectural style that governs the entire organization - all the elements, their interfaces, their collaboration and communication.

Documenting the software architecture simplifies the communication process between developers, allows them to record design decisions made and inform system operating staff about them, and reuse components and project templates in others.

A computer mouse - is a coordinate device for controlling the cursor and giving various commands to a computer. Cursor control is done by moving the mouse over the surface of the table or mouse. The mouse buttons and wheel cause certain actions, for example: activating the displayed object, calling the context menu, turning web pages and electronic documents vertically.

Source text - required for additional translation information

The modulator in the modem modulates the carrier signal in the data transmission, i.e. changes its properties in accordance with the changes in the input data signal, the demodulator performs the reverse process when receiving data from the communication channel. The modem acts as a terminal equipment of the communication line. The transmission and processing of the received data is done by the so-called data generation.

Megabytes (MB, MB) - is a unit of measurement for the amount of data equal to 1,000,000 (106) or 1,048,576 (220) bytes, depending on the context.

Online (English online (on line) - on line, in communication, network ", on air) - in connection mode. For example, it can show the status of the user in the forum.

In shortly say, the Internet is not just a media and a universal reference, but a means of communication. If the topic is very interesting and faithful, the visitor, the places visited, are those who are from “church” (from the English community) or a group from “Society” (English) or “community”. If you think about how many tools and methods of communication in the world, there are many and most of them are related to the Internet. So, there are different ways to communicate on the Internet: e-mail, forums, Internet magazines. If you think about it, forms of communication on the Internet create a picture and resemblance of forms of communication in real life. Thus, the form of communication by mail is old, here and on the Internet we communicate with the e-mail sent from the mailbox to the designated mailbox. True, the whole procedure using the Internet is around 5 minutes, the whole procedure takes a long time. These abbreviations may be a little more complicated for most users, but not for everyday users.

References:

1. Galperin J.R. Stylistics. - Moscow: Higher School, 1977. – 332 –Pp.
2. Keenan E.L. Formal Semantics of Natural Language. - Pages 246-249 of Cambridge
3. Nida E.A. Semantic Domains and Componential Analysis of Meaning and Current Issues in Linguistic Theory. – Bloomington, 1995.– Pp. 139-167.
4. Potter S. Modern Linguistics. Lnd. 1957. – Pp. 37-54.
5. O. Jespersen. Linguistics. London, 1983. – Pp. 395-412.
6. Maurer D.W., High F.C. New Words - Where do they come from and where do they go. American Speech. 1982. – Pp.171. 7. O.Jespersen. Growth and Structure of the English Language. Oxford, 1982. –Pp. 32-34.

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TASIRI

Asronova Roziyaxon A'zamjon qizi
Buloqboshi tuman 1-son kasb-hunar maktabi psixologi
Andijon davlat pedagogika insitituti pedagogika psixologiya yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7310767

Annotatsiya: maqolada ijtimoiy haqiqatning yangi hodisasi - kompyuter tarmog'i haqida so‘z boradi. Muallif yoshlar o‘rtasidagi psixologik tanglikning yangi shakli haqida yozadi. Internetga bog'liqlik. Shuningdek, ota-onalar uchun internetga bog'liq bo‘lgan o‘smirlarning oldini olish bo‘yicha qo‘llanma.

Kalit so‘zlar: internet, internetda xavfsiz o‘smirlar xulq-atvori, globallashuv, rasmiy formula, tarmoq, virus.

"Internet - bu global kompyuter tarmog'i bo‘lib, u foydalanuvchilarga ulkan erkinliklarni beradi" - rasmiy formulalardan biri. Tarmoqqa birinchi marta “kirgan” odam odatda internet haqida yaxshi taassurot qoldiradi. Lekin haqiqatan ham shundaymi? Siz buni faqat vaqt o‘tishi bilan tushunasiz. Internetda qancha uzoq bo‘lsangiz, unda nafaqat ortiqcha, balki kamchiliklarni ham ko‘rasiz. Ammo, afsuski, Internet bizning ongimizni qanday to‘ldirishini hamma ham tushuna olmaydi va tushuna olmaydi va biz endi nima yaxshi va nima yomonni ajrata olmaymiz. **Internet bizga ko‘p narsalarni beradi turli xizmatlar, masalan: daromad**, **aloqa**, **ko‘p ma'lumotlar mavjud.** LEKIN! Bularning barchasida ko‘plab minuslar mavjud, ular ortiqchalardan ko‘ra ko‘proq:

- *elektromagnit nurlanish ta'siri*
- *axborotni yo‘qotish stressi*
- *virtual dunyoga qaramlik*
- *axborotning ommaviy mavjudligi*
- *ruhiy kasalliklar*

Internetga qaramlik-insonning internetda iloji boricha ko‘proq vaqt o‘tkazishga obsesif istagi, undan uzilib, haqiqiy dunyoga qaytishga qodir emasligi ruhiy kasallik. Shifokorlar buni giyohvandlik va spirtli ichimliklarga qaramlik bilan solishtirishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilib, o‘smir turli guruhlarga, subkulturalarga qo‘shiladi, shubhali odamlar bilan tanishadi. Bularning barchasi beqaror psixika va hatto oson ishonadigan va ta'sirlanadigan o‘smirning hayoti uchun yomon bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘smirlar muloqotining yana bir salbiy tomoni - bu real dunyoda muloqot qilish imkoniyatlarining cheklanganligi, ular haqiqiy

tanishishda muammolarga duch kelishadi. Darhaqiqat, Internetda o‘smir o‘zi uchun har qanday rolni tanlashi, o‘zini yaxshiroq, go‘zalroq qilishi, idealini o‘ylab topishi mumkin, ammo hayotda hamma narsa unchalik oddiy emas, chunki siz o‘zingizsiz.

Internet: yoq va qarshi. Internet - bu o‘zingizni anglash, o‘zingizga yoqqan ishni topish va hech qachon bo‘lmagan joyga borish imkoniyati uchun ulkan platforma. Biroq, bu imkoniyatdan hamma ham foydalanavermaydi...

Shunday qilib, keling, ushbu tarmoqning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqaylik. Keling, yaxshilikdan boshlaylik. Birinchidan, bu o‘z-o‘zini anglashning cheksiz imkoniyatlari. Internetda sizga har qanday narsani o‘rgatadigan ko‘plab kurslar mavjud: hatto sahifalarni buzish. Bu erda biror joyga borish shart emas - uyda o‘tiring, choy iching va o‘qing. Masalan, siz chet tilini o‘rganmoqchimisiz? Skype'dagi repetitorlar, barcha mumkin bo‘lgan manbalar sizga yordam beradi. Siz shunchaki ruhingizga yaqinroq narsani topishingiz kerak va endi siz har qanday qulay vaqtda mashq qilishingiz mumkin (yana bir ortiqcha). O‘qish kerak emasmi? Siz biror narsada keng bilimga egamisiz? Baham ko‘ring, kimgadir o‘rgating, veb-sayt yarating, auditoriyani jalb qiling, kimgadir foyda keltiring.

Uchrashuv uchun yana bir imkoniyat. 21-asrda bir xil manfaatlarga ega va ehtimol boshqa mamlakatlardan do‘stlar topish muammo bo‘lmaydi va yana ko‘p... Ammo ijobiy tomonlardan tashqari, kamchiliklar ham mavjud.

Birinchi minus: Internetdan nafaqat oddiy odamlar foydalanadi. Monitorning narigi tomonida o‘tirgan odamni ko‘rish, uning boshida nimalar bo‘layotganini bilish imkonsiz bo‘lgani uchun, bu darhol xavf tug'diradi.Bunday odamlarning ta'siriga tushib, siz pul yo‘qotishingiz yoki hatto yo‘qotishingiz mumkin. o‘ldiriladi (bunday holatlar bo‘lgan). Shuning uchun xakerlar, viruslar 21-asrning ofatidir. Kompyuterlar nima saqlamaydi, ular qancha sirlarni bilishadi, bunday ma'lumotlarga ega bo‘lganingizdan so‘ng, siz oddiy odamlarning hech biri yoqtirmaydigan odamni tuzatib, sharmanda qilishingiz va oxir-oqibat shantaj qilishingiz mumkin.

Ikkinchi minus: odamlarning tanazzulga uchrashi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, hamma ham Internetdan to‘g'ri foydalanmaydi. Internet ta'siri ostida odamlar qancha vaqtni behuda sarflayotganini sezmaydilar. Masalan. Tasavvur qiling-a, bank har kuni sizga sarflashingiz kerak bo‘lgan 86 000 dollar beradi, qolganini esa bank o‘zida qoldiradi. Va shuning uchun har kuni. Albatta, siz har bir dollarni sarflashni xohlaysiz. Shunday qilib, 86 400 dollar sizning vaqtingiz. Har bir yangi kun qolganini olib, 86400 soniya beradi.

Uchinchi minus: Qo‘pollik. Bizni internetda hech kim ko‘rmaydi, bizni kuzatib bormaydi va hokazo degan fikr bor, lekin behuda. Barcha tashriflar kuzatiladi. E'tibor berganmisiz, moda liboslari joylashgan saytga kirganingizda, sizga ko‘ylaklar va hokazolarni sotib olish takliflari bilan e'lonlar taklif qilinadi. Tomosha qiling. Ba'zida bu kulgili) Internetda qo‘pol bo‘lish, qo‘pol bo‘lish juda oson, chunki odamni

ko‘rmaysan, o‘zing xavfsizsan.. Keyin esa normal bo‘lib, odat bo‘lib qoladi va "Odat ikkinchi tabiat" deganlaridek.

Afsuski, biz Internet bizga taqdim etayotgan barcha imkoniyatlardan foydalanmayapmiz. Darhaqiqat, muvaffaqiyatga erishish, Internetdan foyda olish uchun sizga sabr-toqat, mehnat, iroda kerak va, afsuski, odam harakat qilishni yoqtirmaydi. Hamma oson narsani xohlaydi, lekin bu dunyoda hech narsa tekinga kelmaydi... Biz shunday yashaymiz.

"Sizningcha, qaysi saytlar o‘smirlar uchun foydali?" (78 kishi ishtirok etdi) Virtual tanishuv saytlari 4 5,1% Tayyor hisobot va tezislari bor saytlar 18 23% Musiqa va videoni o‘z ichiga olgan saytlar 11 14% O‘yin saytlari 3 3.8% Qidiruv tizimlari 6 7.7% Erotik mazmundagi fotosuratlar va videolarni o‘z ichiga olgan saytlar - - Ta’lim saytlari 7 9% Chat va forumlar 1 1,3% Virtual muzeylar 5 6,4% Virtual ensiklopediyalar va kitoblar 7 9%

2010 yildan beri Butunrossiya bolalar ishonch telefonida **8-800-2000-122** 8 milliondan ortiq ariza qabul qilindi. Ayni paytda mamlakatimizning 83 ta hududida 222 ta xizmat yagona raqamga ulangan. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar, o‘smirlar va ularning ota-onalari psixologik yordam olishlari mumkin. Qo‘ng'iroq bepul va anonim. Xususan, ishonch telefoni veb-saytida kiberbullingning asosiy belgilari va 10 ta shakli keltirilgan.

“Raqamli fuqarolar” nomini olgan zamonaviy bolalar va o‘smirlar kompyuter, mobil qurilmalarni oson o‘zlashtirib, ulardan mohirona foydalanmoqda. Shu bilan birga, bolalarning onlayn xavfsizlik ko‘nikmalari yangi ilovalar va qurilmalarni o‘zlashtirish qobiliyatidan orqada qolmoqda.

Bolalar va o‘smirlar uchun Internetdagi asosiy xavflar quyidagilardan iborat:

1. Kiberbullying (Internet bullying).

2. Bolalar va o‘smirlar ongini manipulyatsiya qilish uchun Internetdan foydalanish (ekstremistik, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni targ'ib qilish, o‘z joniga qasd qilish, xavfli o‘yinlarga jalb qilish).

4. Kiberfiribgarlik.

5. Tarmoqqa kirish xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni texnik vositalar bilan o‘g'irlash.

6. Voyaga etmaganlarning shaxsiy ma'lumotlarini qonunga xilof ravishda to‘plash va (yoki) ularni jamoat mulkiga tarqatish.

7. Kattalar uchun saytlarni ko‘rish.

Internet - bu bola rivojlanishining yangi yashash joyi va manbai. Albatta, bu holat bolalarning shaxsiyatini shakllantirishga, tashqi dunyo bilan munosabatlariga, madaniy amaliyotiga ta'sir qiladi.

“Unpress” ijodiy uyushmasi prezidenti, pedagogika fanlari doktori Sergey Tsymbalenko o‘z intervyusida shunday dedi: “Internetdagi bolalar, bu haqiqat, undan

uzoqlashib boʻlmaydi, jamiyat doimiy muloqotga, uzluksiz muloqotga oʻtdi. Bu jamoaviy intellektga yoki noosferaga hal qiluvchi oʻtishdir. Bolalar jamiyatning yangi holatiga birinchi boʻlib qadam qoʻyishdi.

Children domen zonasidagi "Katta loyihalar"dan biri Sputnik.Children loyihasi boʻlib, unda 5000 dan ortiq saytlar tanlangan: multfilmlar, oʻyinlar, kitoblar, qoʻshiqlar va boshqalar. Har bir resurs qidiruv tizimi va xavfsizlik tizimining baholovchilari tomonidan tekshiriladi.

Google ota-onalarga internetda bolalar xavfsizligi boʻyicha 10 ta qoidani taklif etadi. Birinchi qoida - farzandingiz bilan onlayn xavfsizlik haqida gaplashish. Eng muhimi, bolangizni har qanday tushunarsiz yoki qoʻrqinchli vaziyatda xavfsiz yechim topish uchun ota-onasi bilan bog'lanishi kerakligiga ishontiring.

Oʻsmirlar Internetga qaramlik va zoʻravonlik. Internetga qaramlik 21-asr vabosidir. Afsuski, bolalar buni mustaqil ravishda engishga qodir emaslar. Ota-onalar farzandlari bilan ziddiyatga tushmasliklari, ularni tashlab ketmasliklari, balki ularni qanday boʻlsa, shunday qabul qilishlari kerak. Chunki farzandining shunday boʻlib qolishida ota-onalarning ham hissasi bor. Bu erda xatolaringizni tan olish juda muhim, lekin bu eng qiyin narsa - ota-onalar har doim oʻzlarini haq deb bilishadi.

Internetda oʻsmirlar hammani va hamma narsani oʻldiradigan, oʻzlarini kuchli va sovuqqon his qiladigan jinsiy aloqasiz mavjudot boʻlish imkoniyatiga ega. Agar bu bolaga toʻliq singib ketgan boʻlsa, unda jinoyatchi undan chiqib ketadi. Bir payt u haqiqiy hayotda ham hamma narsaga ruxsat berilgan deb oʻylaydi. Bu bolalardan biri, oʻyinchilar, savolga: "Oʻshanda nima haqida oʻylading?" - deb javob berdi: "Mening ikkita orzuim bor edi - yo birovni oʻldirish yoki oʻldirish".

Muammoni hal qilish yoʻllari

Kompyuter oʻyinlarining jozibadorligiga qarshi turish juda qiyin va ehtimol kerak emas. Ammo oʻsmir qanday va qanday oʻynashini kuzatish kerak. Bolaning oʻyin afzalliklari va odatlarini oqilona va muvozanatli tahlil qilish uning ichki dunyosi haqida qiziqarli kashfiyotlar qilishga, shuningdek, uning tashqi dunyoda qanday qiyinchiliklarga duch kelishini tushunishga yordam beradi. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar umuman kompyuter oʻyinlari bilan emas, balki bolaning oʻz boʻsh vaqtini boshqara olmasligi bilan shug'ullanishlari kerak. Oʻsmirni vaqtini, his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini boshqarishga oʻrgatish kerak. Bolalar kompyuterda kuniga 23 soatdan koʻp vaqt oʻtkazmasliklari va kamroq oʻynashlari tavsiya etiladi. Biror narsani oʻynoqi tarzda oʻrganish yaxshiroqdir. Sanitariya qoidalariga koʻra, katta.

Adabiyotlar:

1. Kimberli J. Internetga qaramlikning diagnostikasi // Psixologiya, 2010 yil 5-son.

2. www.ziyonet.uz

СПОСОБНОСТЬ ОРГАНИЗМА АДАПТИРОВАТЬСЯ К ВОЗДЕЙСТВУЮЩЕМУ ФАКТОРУ

Таджибаева Дилафруз Рахмонбердиевна
Ферганский медицинский институт
общественного здоровья
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311541

Аннотация: В статье обощены материалы о адаптации и гомеостазе как две конечно-результирующие, организующие функционирующие отдельные системы всего организма в целом. Где в адаптации организма к воздействию факторов внешней среды ведущую роль принадлежит сердечно-сосудистой системе. От состояния этой системы зависит успешность как срочной, так и долговременной адаптации к различным средовым факторам.

Ключевые слова: Организм, адаптация, гомеостаз, стресс, функциональная система, цена адаптации, вегетативная нервная система.

Организм человека, испытывающий в условиях современного научно-технического прогресса непрерывные стрессорные воздействия (производственные, психоэмоциональные), необходимо рассматривать как динамическую систему, которая непрерывно приспосабливается к условиям окружающей среды путем изменения уровня функционирования отдельных систем и соответствующего напряжения регуляторных механизмов. Приспособление или адаптация к новым условиям достигается ценой затраты функциональных ресурсов организма, за счет определенной биосоциальной платы. И.В. Давыдовский (1962) предложил термин "цена адаптации". Адаптация как одно из фундаментальных свойств живой материи является результатом и средством разрешения внутренних и внешних противоречий, она существует и формируется на грани жизни и смерти, здоровья и болезни, за счет их столкновения и взаимоперехода. Плата за адаптацию зависит от резервных возможностей организма. Плата, которая вышла за пределы биосоциального бюджета и требует от организма все новых усилий, ведет к полому адаптационного механизма. Это носит не только биологический, но и социальный характер и достигается иногда ценой определенных повреждений, той или иной дисгармонией по сравнению с нормой. Реакция организма в процессе взаимодействия с факторами окружающей среды протекает по-разному, в зависимости от силы воздействующего фактора, времени воздействия и адаптационных возможностей организма, которые определяются наличием функциональных ресурсов. В ответ на воздействие факторов,

имеющих стрессорный характер, в организме возникает общий адаптационный синдром, который имеет неспецифический характер. Он облегчает деятельность перенапряженных структур биосистемы и поэтому рационален и биоэнергетически целесообразен. В процессе неспецифической адаптационной реакции образуются дополнительные количества энергии, используемой организмом для сохранения функциональной устойчивости в неадекватных условиях среды. Если действующий фактор невелик по силе или его воздействие кратковременно, то организм может сохранить удовлетворительную адаптацию, т.е. высокие функциональные возможности. В случае значительной силы воздействия или большой его продолжительности возникает выраженное напряжение регуляторных систем, включая симпатоадреналовую систему и корковые механизмы регуляции. Перенапряжение систем регуляции может привести к истощению защитных сил организма, снижению его функциональных возможностей. Специфические изменения могут выявляться на всех стадиях адаптационного синдрома, но преобладающими они становятся на стадии истощения защитных сил организма. При этом формируются определенные синдромы патологических состояний или функциональных нарушений, характерные для конкретных условий. Состояние целостного организма как результат деятельности функциональной системы определяется оптимальностью управляющих воздействий, их способностью обеспечить уравновешенность организма со средой и его адаптацию к условиям существования. Адаптационно-приспособительная деятельность требует затрат энергии и информации, в связи с чем можно говорить о цене адаптации, которая определяется степенью напряжения регуляторных механизмов и величиной израсходованных функциональных резервов. Состояние обычной (средней) жизнедеятельности характеризуется наличием относительной уравновешенности реакций организма со средой и одновременным поддержанием гомеостаза внутри живой системы. Изменения уровня функционирование системы или ее элементов, в частности усиление информационных, энергетических или метаболических процессов, не ведет к нарушению сложившегося гомеостаза, если не возникает перенапряжения регуляторных механизмов и не истощается функциональный резерв.

Основным системообразующим фактором для организма как диссипативной системы является адаптация – стремление к уравновешиванию со средой, тогда как для отдельных физиологических систем таким фактором является гомеостаз – стремление к внутреннему уравновешиванию. Адаптация и гомеостаз – это две конечно-результирующие, организующие функционирование отдельных систем и всего организма в целом. В адаптации

организма к воздействию факторов внешней среды ведущая роль принадлежит сердечно-сосудистой системе. От состояния этой системы зависит успешность как срочной, так и долговременной адаптации к различным средовым факторам. Существует понятие единой функциональной системы вегетативного управления, включающей в себя многоуровневый комплекс различных регуляторных структур организма с внутренними и внешними связями, принимающих участие в регуляции кровообращения. В то же время при существенных флуктуациях внешних факторов или развитии патологического процесса с целью сохранения гомеостаза активизируются высшие уровни управления. Среди всего спектра методов анализа адаптационного потенциала человека, опирающихся на оценку различных параметров жизнедеятельности, наиболее информативными являются те, которые характеризуют деятельность сердечно-сосудистой системы – главного индикатора всех происходящих в организме событий. Любые стрессорные воздействия влияют на ритм сокращений сердца, регулируемый через симпатический и парасимпатический отделы вегетативной нервной системы (ВНС).

Способность адаптироваться к воздействующему фактору (или адекватно отреагировать на воздействие) без нарушения миокардиально-гемодинамического гомеостаза и полома механизмов адаптации может проявится только при достаточном адаптационном потенциале. Это зависит не только от имеющихся функциональных резервов, но и (в меньшей степени) от адекватности и экономичности реагирования, а также эффективности управления расходованием и восстановлением резервов. Цена адаптаци миокардиально-гемодинамического гомеостаза определяется состоянием вегетативной регуляции, с одной стороны, и энергетическими затратами на поддержание необходимого уровня функционирования системы кровообращения (например, минутного объема), с другой. Эти два условия взаимосвязаны благодаря одновременному хроно- и инотропному влиянию вегетативной нервной системы на сердце. Тем не менее в практике обычно учитывается лишь конечный результат регуляторных влияний - частота пульса, ударный и минутный объем кровообращения, т.е. показателя уровня функционирования системы кровообращения. Поэтому одним из важнейших методологических вопросов при диагностике донозологических и преморбидных состояний является выбор адекватных показателей вегетативного гомеостаза.

Использованная литература

1. Баевский Р. М., Берсенева А.П. Оценка адаптационных возможностей организма и риск развития заболеваний. – М.: Медицина, 1997. –

236 c.

2. Краюшкин А.И., Перепелкин А.И., Доронин А.Б. Взаимосвязь адаптационного потенциала, площади кисти и окружности грудной клетки зависимости от индекса массы тела у юношей// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 6-2. – С. 260-262;

CHET TILLARINING O‘ZBEKISTON FUQAROLARI HAYOTIDAGI O‘RNI VA INGLIZ TILINI O‘RGANISHNING INNOVATSION USULLARI

Qozoqova Ra’no Shirinbayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi,
Shodiyeva Gulhayo Xudoynazarovna
ilmiy rahbar, Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311559

Annotatsiya: Chet el fuqarolari bilan o‘z- o‘zidan muloqotga kirishishga to‘g‘ri keladi.O‘z o‘rnida yurtimizga sayohatchilar juda ko‘p tashrif buyuradi. Ana shunday vaziyatlarda xoh u sotuvchi bo‘lsin, yoinki oddiy yo‘lovchi bo‘lsin chet tillarini bilishi lozim. O‘z navbatida til o‘rganish fikrlash qobiyatiga ham ta’sir etmay qolmaydi. Insonlarning yuksalish darajasi, uning ma’naviyati, dunyoqarashiga ham chet tillarni bilish muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, turizm, import – eksport, innovatsiya metod.

Til o‘rganish inson hayotidagi muhim masalalardan biriga aylanishga ulgurgan. Inson qanchalik ko‘p boshqa tillarda so‘zlasha olsa, bu uning hayotida muvaffaqiyatlarga erishishiga turtki bo‘lishi aniqdir.

Biz “Yangi O‘zbekiston”ning kelajagi, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qiladigan yosh avlod sifatida bu jarayonga o‘z hissamizni qo‘shishga mas’ulmiz. Chunki yurtimiz qadimiy shaharlar maskani hisolanadi. Bundan ayonki, chet el fuqarolari bilan o‘z- o‘zidan muloqotga kirishishga to‘g‘ri keladi.O‘z o‘rnida yurtimizga sayohatchilar juda ko‘p tashrif buyuradi. Ana shunday vaziyatlarda xoh u sotuvchi bo‘lsin, yoinki oddiy yo‘lovchi bo‘lsin chet tillarini bilishi lozim.

Til o‘rganish fikrlash qobiyatiga ham ta’sir etmay qolmaydi. Insonlarning yuksalish darajasi, uning ma’naviyati, dunyoqarashiga ham chet tillarni bilish muhim o‘rin egallaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston xalqaro dunyo reytingida o‘z o‘rniga ega bo‘la olgan davlat deb bemalol ayta olamiz. Bu esa o‘z o‘zidan O‘zbekistonning import- eksport ya’ni savdo –sotiq, boshqa sohalarda chet el davlatlari bilan hamkorlikka kirishadi. Bu jarayonlar esa tadbirkorlar ham chet tillarni mukammal bilishini talab qiladi.

Xalqimizda ajoyib bir naql bor “Til bilgan el biladi”. Yurtimizda chet tillarni o‘rgatuvchi o‘quv markazlari tashkil etilyapti, chet tillarni qisqa muddatda o‘rganish uchun kitoblar yaratilyapti, chet tillar hatto bolalar bog‘chalarida ham o‘rgatilmoqda.

Boshlang‘ich sinflardan tortib, litsey, kollej, universitetlarda chet tillarni o‘rgatish uchun dars soatlari ajratilgan va zamonaviy til o‘rganish va o‘rgatish metodlaridan foydalanib darslar tashkil etilmoqda.

Boshqa soha vakillari ham: jumladan sportchilarimiz, san’atkorlar, fan olimpiadalarida ishtirok etayotgan fuqarolar ham chet tillarida bemalol so‘zlasha olyapti.

Bu esa insonda g‘urur hissini uyg‘otadi. Zamon talabi asosida televideniya orqali bir necha tillarda ko‘rsatuvlar tayyorlanmoqda. Til o‘rganishni targ‘ib etuvchi va o‘rganish jarayonini qiziqarli tashkil etuvchi kanallar, yosh o‘rganuvchilar uchun chet tillarida qiziqarli ko‘rsatuvlar tayyorlanmoqda.

Davlatimizda chet tillarni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar uchun qarorlar ham mavjud, masalan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev qarorlari bilan

19-may 2021-yil “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etish.

-Q/ 21- sonli qarori: Tumanlarda chet tillarni o‘rganishga yetarli sharoit yaratish va uni ommalashtirish.

6- may 2021-yil prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish.

7-may 2021-yil chet tilalri bo‘yicha eng yaxshi maktablarni aniqlash.

7-may 2021-yilchet tillari bo‘yicha eng yaxshi maktablarni aniqlash uchun Prezident sovrini ta’sis etiladi.

Ilg‘or metodlar chet tilini puxta o‘zlashtirishda kompas vazifasini o‘taydi.

Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanishdir. Rolli o‘yinlar bu real hayotimizdagi turli situatsiyalarni chet tili o‘rganish jarayonida qo‘llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi.Masalan:1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat bola yo‘ldan o‘tayotib yo‘l qoidasiga rioya qilmaydi ya’ni o‘tish bo‘lmagan yo‘lni kesib o‘tadi. 3-holat. Magazinda oziq-ovqat olish uchun xaridor kiradi. Ushbu situatsiyalar bo‘yicha sahna ko‘rinishlari ijro etiladi.Bunday hayotiy rolli o‘yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi.Rolli o‘yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashni o‘rganadilar, o‘z emotsional holatlarini chet tilida erkini ifodalay olishga harakat qiladilar. Rolli o‘yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to‘g‘irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to‘g‘irlash ham tilni o‘rganishga yordam beradi va talabalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi. Dars jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanish bir vaqtning o‘zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Bundan tashqari rolli o‘yinlar talabalarning chet tilini o‘rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayonida jonli, quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo‘lib inglizcha, («case»—aniq vaziyat, hodisa, «study»—o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Eng qiziqarli

metodlardan yana biri-«Pantomimo» o‘yinida o‘rganuvchilar 3-guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so‘zlar ro‘yxat asosida beriladi. Ular biror-bir so‘z qo‘llamasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so‘zlarni qolgan guruh a’zolariga tushuntirishlari kerak. Allomalar yig‘ini (Thinkersmeeting) usulida esa U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so‘zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi; “Rasmlar so‘zlaganda” (When pictures speak) usuli darsni yanada qiziqarli o‘tishida ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda, talaba, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. Kvizkartochkalari (quizcards) usulida esa o‘quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalarga bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi. Ko‘rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, nafaqat mamlakatimiz taraqqiyoti balki o‘z karyeramizda muvaffaqiyatga erishish uchun ham chet tillarni bilishimiz har birimiz uchun ustuvor vazifadir. Buning uchun esa barchamizga yurtimizda yetarli imkoniyatlar eshigi ochiq ekanligi isbotini topgan. Bu imkoniyatlardan samarali foydalansak, bo‘lgani. Bizdan talab qilinadigani faqat o‘qish, o‘rganish, tajribali o‘qituvchilarning darslarida muntazam ishtirok etishdir. Ular esa albatta innovatsion texnologiyalardan foydalanib samarali darslarni tashkil etmoqdalar. Biz bemalol ayta olamizki, bu bizga mustahkam tayanch bo‘la oladi.

Yurtimizda ham bunga yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Biz ko‘proq o‘z ustimizda ishlab harakat qilishimiz lozim. Xulosa o‘rnida xalqimizda ko‘p ishlatiladigan ajoyib naqllarni keltirsak bo‘ladi: yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir, til bilgan el biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Q.Xatamova, M.N.mirzayeva.“Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo‘llanma), Navoiy, 2006, 40 -bet.

2. M.Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva “Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish”. Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

3. O‘.Hoshimov, I.Yoqubov. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003.

4.Intenet tarmog`i: ziyo.net google: непосредственный электронный// Молодойученый.—2017.—№4.2(138.2).—С.36–37.—
URL:4.https://moluch.ru/archive/138/39058/(датаобращения:27.04.2020)N.

5. Югай Е. 2021. Цифровая культура и общество: проблемы их взаимоотношений в условиях глобализации. Общество и инновации. 2, 7/S (авг. 2021), 58–67.

DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp58-67.

6. Yugay Evgeniya Viktorovna. (2022). INFORMATION AND DIGITAL LITERACY: THEIR CONCEPTS AND SKILLS. https://doi.org/10.5281/zenodo.6945140

7. YUGAY E. V. DIGITAL CULTURE AND ITS INFLUENCE ON VALUE ASPECTS OF HUMAN BEING //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2021. – №. 12. – С. 422-425.

IJTIMOIY TARMOQLAR (OAV)DAN TO‘G‘RI FOYDALANISH

Jamoliddinov Temur
NamMQI qurilish fakulteti tyutori
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311573

Annotatsiya: Maqolada Ommaviy axborot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, axborot madaniyatini ijtimoiy hayotimizda yanada keng targ‘ib qilish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot, internet, vositalar, dunyo, bugungi, OAV, qonun.

Bugungi kunda dunyo miqyosida allaqachon ommalashib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlar Ommaviy axborot vositalari (OAV) ya’ni Gazetalar, jurnallar, Internet, radio,telvidinya va boshqa turdagi muloqot usullari,tizimlarini tushinishimiz mumkin.

Ommaviy axborot vositalari o‘zi nima shu haqida dastlab ma’lumot berib o‘tsak (qisqartmasi: OAV) keng ommaga axborot yetkazish,tarqatish,vositalardir.

2021-yil hisobiga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan ommaviy axborot vositalarining soni 1893 taga teng.[1]

Misol uchun, 1893 ta (OAV) bo‘yicha

- 642 ta gazetalar;
- 482 ta jurnallar;
- 17 ta axborotnoma-byulleten;
- 37 ta radio aloqalar;
- 72 ta televideniya vositalar;
- 5 ta axborot agentliklar;
- 638 ta internet nashr va veb-saytlardir.

Ma’lumot uchun shuni aytish kerakki, 2016 yilda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan OAVning soni 1514 ta bo‘lib, bugunga kelib ular 379 taga ko‘payganini ta’kidlab o‘tishimiz zarur.O‘zbekiston respublikasi so‘z erkinligi bo‘yicha 2022-yil statistikasiga yuzlanadigan bo‘lsak 133-o‘rinni eganlab turibdi.

Barchamizga ma’lumki (OAV)dan erkin foydalanish bilan birga javobgarligi aniq belgilab qo‘yilgan. Masalan: O‘zbekiston Respublikasining Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunining 2-moddasida keltirilishicha, O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi. OAVdan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan

[1] https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-k-ancha-oav-faoliyat-olib-bormok-da-49600

foydalanadilar hamda o‘zlari e’lon qilayotgan axborotning to‘g‘riligi va haqqoniyligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.[2]

2-moddasida esa har kim ommaviy axborot vositalarida mustaqil chiqish, o‘z fikri va e’tiqodini oshkora bayon etish, fikr-mulohaza,taklif, e’tirozini namoyish etish huquqiga ega ekanligi borasida so‘z boradi.

Shuningdek 6-moddada nazarda tutilgan asosiy masala shuki, Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda suiste’mollarga yo‘l qo‘yilmasligi, umuman olganda OAVdan oqilona foydalanish, axborot ulashish madaniyatiga rioya qilish, turli-xil internet tarmoqlaridan to‘g‘ri foydalanish muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatimiz yoshlari orasida internet tarmog‘idan keng foydalanish bilan birgalikda turli hil separatizim g‘oyasi ostida tashkil etilgan guruhlar,oqimlarni provakatsiyalariga ergashmoqdalar. Hozirda dunyo bo‘ylab tarqalgan bir qator saytlarni misol qilishimiz mumkin:

Ijtimoiy tarmoq nomi (va *foydalanish o‘rni bo‘yicha*)	**Qaysi davlatga tegishli**
•Facebook;	(U.S.) Amerika 1-o‘rin
•Tik Tok;	(China) Xitoy 2-o‘rin
•Whatsapp;	(U.S.) Amerika 3-o‘rin
•Instagram;	(U.S.) Amerika 4-o‘rin
•Telegram;	(Russia) Rossiya 5-o‘rin

Keyingi o‘rinlarda ushbu tarmoqlar turishi keltirilgan.[3]

•Twitter;	(U.S.) Amerika
•Odnoklassniki;	(Russia) Rossiya

Internet tarmog‘i misoli bir keskir pichoqqa o‘hshaydi. Kimdir undan turmush sharoitida qulaylik maqsadida foydalansa, yana kimdir qotillik quroli sifatida jinoyat sodir etadi. Ya’ni bu tarmoqlardan uzoqni yaqin qilish, axborot almashish,ilim olish, ilim berish emas, aksincha ma’lum bir davlatni ichki nizosiga aralashish,provakatsiya qilib,xalq orasida nizo keltirib chiqarishdan iboratdir.

2021-yil 6-yanvar Qozog‘iston (Olmota) isyoni;

2022-yil 1-iyul Qoraqalpog‘istonda bir guruh shaxslar tamonidan nizo keltirib,chiqarilishini misol qilishimiz mumkin.

Muqaddas islom dinida yaxshilik va yaxshi niyat qilish eng muhim amallardan biri bo‘lib, oddiy ishlar ham niyatni yaxshiligi sababli savobli amallarga aylanadi va niyatning yomonligi tufayli gunoh ishlar qatoriga kiradi.

Niyat qalb amalidir. Agar qalbdan niyat qilib, uni tilda ham zikr etsa, yanada yaxshi. Musulmon kishi dunyo hayotida qilayotgan har bir ishini ibodat darajasiga ko‘tarishga harakat qilishi kerak. Alloh taolo O‘z bandalarini faqat ezgu ishlar

[2] https://lex.uz/acts/-53543

[3] https://www.terabayt.uz/uz/post/eng-ommabop-ijtimoiy-tarmoqlar-facebookni-taxtdan-agdarishdi.

qilishga chorlab bunday deydi. “Bas, kimiki Parvardigori bilan muloqotda bo‘lishdan umidvor bo‘lsa, u holda ezgu amal qilsin va Parvardigoriga ibodat qilishda hech kimni (Unga) sherik qilmasin”! (Kahf surasi 110-oyat) [4].

Shunday ekan bugungi kunda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan turli-xil voqe’alar biz uchun sinovli va o‘z o‘rnida ibrat olish bilan birgalikda ogoh bo‘lishga chaqiradi.

Foydalinilgan adabiyotlar:

1) https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-k-ancha-oav-faoliyat-olib-bormok-da-49600

2) https://lex.uz/acts/-53543

3) https://www.terabayt.uz/uz/post/eng-ommabop-ijtimoiy-tarmoqlar-facebookni-taxtdan-agdarishdi.

4) http://surxonmuslim.uz/?p=4363

[4] http://surxonmuslim.uz/?p=4363

TARBIYALANUVCHI PORTFOLIOSI VA MTTDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR

Umirova Rano Nematovna
Samarqand viloyati Kattaqo‘rg'on shahar 15 – MTT
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311585

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishga kompentensiyaviy yondashuv, guruhlarni har bir yosh guruhiga mos adabiyotlar bilan boyitib borish, bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

Аннотация: Сегодня грамотный подход к качеству и эффективности дошкольного образования, обогащение групп литературой, подходящей для каждой возрастной группы, содержательная и интересная организация повседневной деятельности детей, эффективное использование их свободного времени, выявление способностей и творческий подход к процессу, обеспечивает рациональный и систематический анализ сессий и ресурсов для удовлетворения потребностей детей и общества.

Tayanch so‘zlar: bola, kompetensiya, tarbiyachi, pedagog, keys stadi, texnologiya, metod, ota-onalar, hamkorlik, maktab, mtt, ta'lim sifati, mashg‘ulot, markazlar.

Ключевые слова: ребенок, компетентность, педагог, педагог, тематическое исследование, технология, метод, родители, сотрудничество, школа, качество образования, обучение, центры.

Siz odatda tarbiyachilarning portfolio yig‘ishlariga guvoh bo‘lgansiz. Tarbiyalanuvchi portfoliosi ortiqcha ish degan fikrga borishingiz ham mumkin. Ammo aynan tarbiyalanuvchi portfoliosi tarbiyachi mehnatining yuzaga chiqaradigan ko‘zgu desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu portfolioni yig‘ish jarayonida tayyorlov guruhining bolasi o‘zi mehnat qiladi, shuningdek bu jild unga bog‘chasini eslatib turadigan bir umrlik esdalik bo‘ladi deyishimiz mumkin. Tarbiyachidan bu o‘rinda talab qilinadigani yo‘nalish ko‘rsatish xolos.

Tarbiyalanuvchi portfoliosi – unda asosan bolaning ijodiy ishlari yig‘indisi jamlanadi va u faqat tayyorlov guruhi bolalari o‘rtasida qilinadi. Portfolio yig‘ishdan ko‘zlangan maqsad – bolaning o‘zi yasagan, chizgan ijodiy ishlarini yig‘ish va shu asnosida unda MTT xotiralarini o‘zi bilan olib ketishiga imkoniyat yaratish,

tarbiyalanuvchining o‘ziga bo‘lgan bahosini oshirish. Portfolio yig‘ish jarayonida bola faollik ko‘rsatadi, maqsad qo‘yish va uni bajarishni o‘rganadi, ma’lum qiyinchiliklarga dosh beradi va bu uning fe’lida qat’iyatlilik va sabr qilish tuyg‘usini rivojlantiradi. Portfolio yig‘ish jarayonida ma’lum shartlarga rioya qilish majburiy hisoblanadi.

Birinchisi, bu rostgo‘ylik bo‘lib, bunda faqat bolaning o‘z qo‘li bilan yasalgan ijod namunalaridan jamlanishi shart. Chunki bola bu jamlanmani maktabga chiqqanida o‘qituvchisiga ko‘rsatishi va lozim bo‘lsa o‘sha o‘yinchoqni yana yasay olishi kerak. Har bir portfolio albatta bir yo‘nalishda bo‘lishi shart emas. Chunki har bir bolaning o‘ziga yarasha iqtidori bor va o‘sha yo‘nalishda qobiliyatini aks ettiradigan narsalar yig‘gani ma’qul.

Quyidagi bo‘limlar har bir portfolio asosini tashkil qiladi:

“Men bilan tanishing”.

Bu bo‘limda har bir bolaning ismi, bolaligida tushgan suratlari, qaerda yashashi haqidagi ma’lumot yoziladi. Tarbiyalanuvchining ismi nima va bu ismni unga kim nima maqsadda qo‘ygan, ushbu ism qanday ma’noni bildirisha haqida ham ma’lumotlar yozish mumkin.

“**Men o‘sayapman**”.

Bu bo‘limda bolaning o‘sishi bilan bog‘liq ma’lumotlar hamshiradan olib yoziladi. Unda bolaning qanday kasalliklar bilan kasallangani, surunkali kasalligi bor yo‘qligi haqidagi ma’lumotlarni ham ilova qilish mumkin.

“Mening oilam”.

Bu bo‘limda oila a’zolari haqida qisqacha ma’lumot beriladi, ular qaysi sohada ishlaydi, sevimli mashg‘uloti nima, ularning qanday yaxshi fazilatlari bor kabi savollarga javob berish ham mumkin.

“Men yordamchiman”.

Bolaning oilada uy ishlarida yordam berayotgani tasvirlangan fotosuratlar ilova qilinadi.

“**Oltin qo‘llar**”

– Bolaning o‘z qo‘li bilan yasagan ijodiy ishlari ilova qilinadi.

“Mening yutuqlarim”.

Tarbiyalanuvchining shu kungacha qo‘lga kiritgan yutuqlari, olgan diplomlari, faxriy yorliqlari ilovaqilinadi.

“Men haqimda”.

Bu bo‘limga tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning aynan shu portfolio egasi haqidagi fikrlari yoziladi. Portfolio birdaniga bir kun yoki bir haftada tayyor bo‘lmaydi. Uni o‘quv yili boshidan boshlab rejalab tayyorlab borish bola uchun ham tarbiyachi uchun ham ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bir haftada bir marta porfolio uchun topshiriqni bajarish me’yor sanaladi. Faqat uni yig‘ayotganda

judayam ko‘p material bilan ko‘paytirib yubormaslikka, uning tashqi ko‘rinishi va ko‘tarish uchun qulay bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, ahloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda “men”obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, oddiy mehnat va o‘quv faoliyatlaridir. Ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda o‘ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki innavatsion bo‘lishi lozimligini talab etadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida kompentensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o‘ynab turib o‘ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o‘yinlarda aks ettiruvchi ta’limiy rivojlantiruvchi o‘yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta’lim mazmunini oshiradi

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. **Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari**

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo‘lgan “Keys-stadi” texnalogiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotida ham foydalanish bolalarni faol ta’lim olishga undaydi. Bu usulni qo‘llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Bolalarga ko‘proq kitob o‘qib berish yoki kitob sovg‘a qilish ularni so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o‘stiradi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2019-yil 20-martdagi “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 muhim tashabbusning 4-chisi “Kitobxonlikni keng targ‘ib qilish”ni MTTdan boshlash zarurligini ta’kidlash lozim. Tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.

2. Мактабгача ёшдаги болалар илк ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.

5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O‘z. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

UMUMMUHANDISLIK FANLARIDA O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

X.A.Akramova
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti
Akademik litsey o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311599

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz yoshlarida umumta`lim fanlarni yuqori darajada shakllantirish, bu jarayonda umumta`lim fanlarini o‘qitish sifatini ta`minlashda turli innovatsion metodlardan foydalanish orqali belgilangan natijalarga erishish.

Kalit so‘zlar: ta`lim, globallashuv, interfaol usul, ta`lim texnologiyasi, dars, uzluksiz ta’lim, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Ta`lim sohasining XX asr so‘nggi choragidan boshlab dunyo miqyosida shiddatli rivojlanishi uning inson va jamiyat taraqqiyotida dolzarb o‘rin tutganidan dalolat beradi. Aynan ta`lim orqali asrlar davomida insoniyat jamiyatining madaniy merosi avloddan-avlodga o‘tib keladi, professional bilim va saviyaga erishiladi, shuningdek, xalqning ma`naviy qiyofasi va umuminsoniy bag‘rikenglik tamoyillari shakllantiriladi. Ta`kidlash kerakki, globallashuv sharoitida ta`lim saviyasi dunyo miqyosida tobora rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyatida insonlarning hayot faoliyatiga ham uzviy ta`sir o‘tkazib, jumladan, sog‘ligiga ahamiyat qaratish, siyosiy faollik, yangiliklarni o‘zlashtirish tezligi, zararli g‘oyalarni ongli tahlil qila olish qobiliyati va boshqalarda yorqin namoyon bo‘ladi. Bunday tarixiy sharoitda dunyo miqyosida ta`limning ahamiyati izchil oshib, u nafaqat iqtisodiyotni, balki butun jamiyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda eng muhim omillardan biriga aylandi. [1]

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchi (talaba)larga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatni nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan

bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish sanaladi. Buning uchun avvalo, "innovatsiya" so‘zining ma’nosini tahlil qilish lozim. "Innovatsiya" – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, "in" – kiritish, "novatsiya" - yangilik degan ma’noni anglatadi. Shusababli o‘qitishda innovatsion tajriba muhitni yaratish o‘qituvchidan ko‘p qirrali izlanish, boy tajriba va yuksak amaliy faoliyatni talab etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta’limni joriy etish jarayonida ta’lim mazmuni yangilandi, o‘quv dasturlari; va o‘quv faktlari bo‘yicha DTS- modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish uslublari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Bugungi kunda interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarni dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyati egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog) lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli va samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba) larda muloqatga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Yuqorida qayd etilganidek zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li - bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb xisoblashmoqda. Xo‘sh, interfaol metodlarning o‘zi nima? Ular qanday didaktiv imkoniyatlarga ega? Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadga muvofiq qo‘llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi?


Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to‘g‘ri qadam tayanch tushunchalar - "interfaol", "interfaol ta’lim"' va “interfaollik” atamalarining lug‘aviy ma’nosi bilan tanishishdir.

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida "interaktiv") ifodalanib lug‘aviy nuqtai nazardan “inter”-o‘zaro, ikki taraflama, “act”-harakat qilmoq, ish qurmoq ma’nolarini anglatadi.

Interfaollik esa ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan va harakat faoliyatning olib borishlarini

ifodalaydi. Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan xar bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog) ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:



An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (talaba) larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (talaba) lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam xolatlarda ruxsat etilgandagina so‘zlashishdan iborat.

An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik oliy ta’lim tizimidagi faqat ma’ruza mashg‘ulotlarida emas, amaliy va seminar darslarida ham ustivorlik qiladi. Unga ko‘ra "yetkazib beruvchi" rolida endi o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi (talaba) namoyon bo‘ladi. O‘quvchi (talaba) asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. O‘quvchi (talaba) lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo‘lib qoladi. Bir qarashda o‘quvchi (talaba) yoki o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq, pisixologik tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha shu tarzda qabul qilingan bilim (ma’lumot) lar juda tez unitiladi.

Xususan, psixologik olimlarning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy ^ fizikologik - psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni shaxs; manbani o‘zi o‘qiganida 10%; ma’lumotni eshitganida 20%; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50%; ma’lumot / (axborot) larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80%; o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot) larni o‘z faoliyatiga tadbiq. etganida 90% hajmdagi ma’lumotlarni yodda sqlash imkoniyatiga ega,

Shunga ko‘ra interfaol o‘qitish "ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan xamkorlik, qizg‘in bahs - munozaralar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ulardan erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish,

muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o‘qituvchi – o‘quvchi –o‘quvchilar guruhi" ning o‘zaro bir - birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab - quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi".

O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z – o‘zini nazorat, o‘z – o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarini ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muaffaq bo‘ladi.

Eng muhimi, interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq, ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T.:O‘zbekiston 2017.
2. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. M.Kamoliddinov, B. Vahobjonov. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent, “Talqin” 2010.
3. Maktabgacha ta`limda metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi. N. N. Djamilova. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2017.
4. “Learning vocabulary by means of visualization”. / Ed. LV Bankevich. Leningrad: Publishing Mouse of Leningrad University, 1984.
5. Madiev F. M., Khaydarov S. Z. SHAKHRISABZ CITY–ARCHITECTURAL HISTORICAL RESPONSIBILITIES //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – С. 58.
6. Саидова Н., Хайдаров Ш. ВЛИЯНИЕ НА СОСТОЯНИЕ ГОРОДА, ХАРАКТЕРИСТИКА И ВИДЫ ОТХОДОВ, ОБРАЗУЮЩИХСЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ КИРПИЧА //НАУЧНАЯ ДИСКУССИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2019. – С. 37-39.

HOW TO IMROVE WRITING SKILLS AND BOOST VOCABULARY IN IELTS

Mavlonova Dilfuza Ujarovna
Student of Navoiy Pedagogical Institute
Yugay Evgeniya Viktorovna
a scientific adviser, a senior teacher of Navoi State Pedagogical Institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311610

Abstract: This article describes information about improvement writing skills and increasing vocabulary in IELTS test. You can find some effective methods and ways to solve these nuisances.

Key words: method, knowledge, technique, boost, vocabulary, outline.

Аннотация: Данная статья рассматривает информацию о том, как улучшить навыки письма и увеличить словарный запас в тесте IELTS. Можете найти несколько эффективных методов и способов решения данных задач.

Ключевые слова: метод, знание, техника, повышение, словарный запас, план.

Currently, most people have interest in learning English and studying in abroad. So that, they are striving to get IELTS certificate. Many people struggle with the IELTS exam preparation, it is popular with being complex. For a number of people, writing can be the most challenging part of the test. “Upgrading the quality of education in the Philippines by requiring all high school graduates seeking admission to post-secondary degree programs necessitating a minimum of four years` study to pass a national entrance examination and appropriating funds therefor”[1]. Furthermore, they have struggle with vocabulary. So, in this article people who have issues with improving writing and boost vocabulary, can find effective methods and ways.

There are a lot ways and techniques of improving the writing skills and boosting vocabulary [2, P. 58-67]. Firstly, these techniques show how to develop writing skills. Now you are familiar with the ins and outs of the writing section, let’s get into my top tips for performing at your best on test day.

1. Use your time wisely

You get 60 minutes to complete the entire section. Task two contributes more to your score, so I recommend spending no more than 20 minutes on task one and 40 minutes on task two. Include time for planning and checking what you’ve written. It’s good to get into the habit of setting 60-minute time limits when doing practice tests.

2. Check the number of words

You need to write a minimum of 150 words for task one and 250 words for task two. Anything less and you will lose marks.

3. Understand the task

Read the instructions carefully, and underline or highlight the keywords. Know what questions you need to cover and what information you need to include.

4. Organise your ideas logically

Spend up to five minutes brainstorming ideas and selecting what information you’re going to include. Organise your ideas logically, and include linking words and cohesive devices between paragraphs, sentences and phrases.

5. Check your work!

When you’ve finished each task, always do a thorough check. It helps to ask the following questions.

Next one is how to increase your vocabulary to ace your Speaking test

1. Get an idiom dictionary and learn a few a day

Idioms are phrases that require prior understanding before you can use them in conversations. This is because such phrases are usually not literal and can’t be understood based on the words within each phrase.

Having said that, idioms function in a way that literal meanings cannot. Hence, they play a major role in the progression of language.

As including idioms in your conversation can help you express yourself in a more creative manner, it helps to learn some.

2. Read extensively from newspapers to magazines

One of the fastest ways to improve your vocabulary is to read. Whether it’s the daily newspaper or a bestselling novel, every publication has something to offer!

In the event you chance upon any words or phrases you don’t understand, you can always head to an online dictionary or do a quick Google search to find the meaning.

It helps to write these new words or phrases down and then try to use them when you can in your everyday conversations.

3. Watch the evening news every night

If reading isn’t really your thing, then turn on your TV and make the evening news a part of your daily routine.

By watching the news presenter speak and observing how he or she reports the news, you’ll be able to pick up new words or phrases and notice how they’re weaved in to bring a point across.

Also, if there are any talk shows or TV dramas that you particularly enjoy, you can kill two birds with one stone by watching them too! Of course, you’ll have to be disciplined and remember that you’re doing it to learn and expand your vocabulary, not just for pure entertainment.

4. Read across various disciplines and topics (from tech to family & climate change)

A good way to increase your vocabulary is to not limit yourself to a certain kind of topic.

When you read across a range of topics, you’ll be exposing yourself to different styles and also get to learn how various words play a part to bring ideas to life.

5. Learn synonyms for commonly used words

A key component of the IELTS is to examine the depth of your vocabulary range, so repeating the same word over and over will not do you any favours.

Thus, it helps to learn synonyms, which are basically other variations of common words that are used to describe the same thing.

Doing so would prevent you from going back to the same word. For example, instead of always saying the word “close”, you can replace it with “shut” or “seal” to bring the same point across, depending on the situation.

6. Use more collocations in your conversations

Collocations are important because they can make you sound like a native speaker when you master them.

When you get familiar with collocations, you’ll understand how to correctly use common words in a phrase or sentence. For example, the word “take”, which can be used in “take a nap” or “take care”.

In conclusion, learning languages are not easy. Although there are some confusing points, learning language is always helpful in any time [4, P.422-425]. Pay attention for your level and what kind of learner are you while learning. Because if you learn somethings which is higher than your level, may be it is challenging for you. So try to learn new things related to your level. Above I mentioned some useful and the most effective ways which can assist to increase your vocabulary range and improve writing skill. All of them are useful if you use correctly. Most people always should be learning English. Most students seek for new words, and should read a lot of articles and especially scientific articles.

Reference:

1. **https://www.chanrobles.com/presidentialdecrees/presidentialdecreeno146.html**

2. Югай Е. Digital culture and society: problems of their relationship in the conditions of globalization //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 7/S. – С. 58-67.

3. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp58-67

4. Yugay, E. V. (2021). Digital culture and its influence on value aspects of human being. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (104), 422-425. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-104-29 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.12.104.29

5. The official IELTS by IDP

XITOY MADANIY MEROSINING JAXON SIVILIZASIYASIDAGI O`RNI

A. Toirxo`jayev
ToshDShI magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7311612

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy madaniyati haqida, Xitoy madaniyatining boshqa davlatlarga bolgan tasiri, Xitoy madaniyati o`zagi va mohiyati haqida so`z yuritiladi. Maqolada 3 davlatga Xitoy madaniyatining bolgan tasiri haqida yozildi.

Kalit so`zlar: Xan madaniyati doirasi, Xan va Tan sulolalari, Cheng Chju Li, Min va Qing sulolalari, maaniyatning mohiyati, madaniyatning o‘zagi, Konfutsiy, “To‘rt kitob va besh klassika”.

Xitoy madaniyati: Xitoy madaniyati bu Xitoy sivilizatsiyasi negizida mamlakatdagi turli xil madaniy mintaqalar va etnik guruhlarning to‘liq integratsiyalashuvi natijasida shakllangan madaniyatdir. Xitoy madaniyatining xalqaro atributlaridan farqli ravishda uni “Xitoy madaniyati” (Xitoy Xalq Respublikasi madaniyati) deb atash mumkin. Xitoy sivilizatsiyasining chuqur ta’sirida bo‘lgan Sharq sivilizatsiyasi tizimi “Xan madaniyati doirasi” deb ataladi, u ijtimoiy mafkuraga taalluqli bo‘lib, ijtimoiy siyosat, iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanish darajasini aks ettiradi. Paleolit davri ixtirolaridan tortib Kan Yuvey islohotlari, Lyan Qichao islohotlari va Sun Yatsenning demokratik inqilobigacha jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Xitoy madaniyati, Xitoy tarixiga ko‘ra, Chao urug‘i, Suiren urug‘i, Fusi urug‘i, Shennong (Yandi) urug‘i, Huangdi (Xuanyuan urug‘i), Yao, Shun, Yu va boshqa davrlarni bosib o‘tgan. “Tarixdan Qingacha”da: “Mamlakatimiz ma’rifat izlarini Chao, Suy, Si va Nongdan tortib to Xitoyda birinchi davlat bo‘lmish Sya sulolasi tashkil topguniga qadar bosish mumkin”. O‘zining rivojlanishidan beri ajoyib madaniyatga ega Xitoy dunyoning sharqiy qismida jonli madaniy elementlarga ega.

Xitoy madaniyati nafaqat Yaponiya va Koreya yarim oroliga muhim ta'sir ko‘rsatdi, balki u Janubi-Sharqiy Osiyo va Janubiy Osiyodagi Vetnam va Singapur, shuningdek, Amerika kabi mamlakatlarga ham katta ta'sir ko‘rsatdi. Xitoy tomonidan ishlab chiqilgan kema qurish texnologiyasi, navigatsiya texnologiyasi va kompas texnologiyasi birinchi marta navigatsiyada qo‘llanilib, insoniyatning ko‘k tsivilizatsiyasining shakllanishiga va Tinch okeani mintaqasining madaniy doirasining shakllanishiga olib keldi (Li Erxe "Suv transporti tarixi" Xitoy"); Chjen Xening G'arbga yetti safari bu madaniyatning tarqalishi va yorqinligini chuqurlashtirdi va shu tariqa Sharqiy Osiyo madaniy doirasini shakllantirdi. Xitoyning kuchli milliy qudrati va xalqaro mavqeining yaxshilanishi tufayli

dunyoning ba'zi mamlakatlari, jumladan, Osiyo va Evropada Xitoy madaniyatiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xan va Tang sulolalari: Xan va Tan sulolalari davrida Xitoyning an’anaviy madaniyati, jumladan, konfutsiylik, buddizm va daosizm, shuningdek, yozuv, rasm, me’morchilik, haykaltaroshlik va boshqalar Yaponiya, Koreya va boshqalarga kirib keldi.Masalan, Cheng Chju Lining tarqalishi va Lu Vang Xin Yaponiyadagi Syue Chju Zi Syue, Yangming maktabiga asos solgan. Tang Jianchjen sharqqa sayohat qildi, Yaponiyada Xitoy buddist madaniyati va haykaltaroshliklari tarqaldi va Tan sulolasidan Jibey Chjenbey, taniqli rohib Kukay, Abe Nakamaro va boshqalar kabi ko‘plab yapon elchilari Xitoyga o‘qish uchun keldilar. Xitoy madaniyati. Shunday qilib, yapon belgilar va me'morchiligi Xitoy madaniyatidan kuchli ta'sirlangan.

Ming va Qing sulolalari: Min va Qing sulolalari davrida an’anaviy xitoy madaniyati G‘arbdagi yezuitlar, Sharq va G‘arb orqali ba’zi Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Xitoyning to‘rtta buyuk ixtirosi (qog‘ozsozlik, bosmaxona, porox, kompas va boshqalar) G‘arbga tanishtirilgandan so‘ng, ular G‘arb kapitalistik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Xitoy an'anaviy madaniyati Frantsiyaga eng katta ta'sir ko‘rsatdi va Frantsiya o‘sha paytda Evropada "Xitoy madaniyati jinniligi" markaziga aylandi. 17-asrdan boshlab “Konfutsiy tahlilchilari” va “Buyuk ta’limot” kabi ba’zi klassik xitoy konfutsiy asarlari Fransiya orqali Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqatildi. 18-asrning bir necha frantsuz ma’rifatparvar mutafakkirlari Xitoy madaniyati ta’sirida bo‘lmagan. Dekart, Russo, Volter, Monteskye, Didro va Xolbax kabilarning Xitoy madaniyatiga hurmat darajasi barchamizni hayratda qoldirdi. Volter cherkovga Konfutsiy portretini qo‘ydi va Konfutsiyni insoniy axloq namunasi deb hisobladi. Nemis faylasuflari Leybnits, Kant, Fixte, Shelling, Gegel, Feyerbax va buyuk adib Gyote Xitoy falsafasini o‘rgangan va Xitoy madaniyatidan turli darajada ta’sirlangan. Masalan, Leybnits aynan Xitoyning kashfiyoti yevropaliklarni diniy chalkashlikdan uyg'otdi, deb hisoblagan. Bu ta'sir fransuz ma'rifatparvari va nemis dialektik tafakkuriga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko‘rsatdi.

Xitoy madaniyatining mohiyati: Xitoy qadim zamonlardan beri odob-axloq o‘lkasi bo‘lib, “marosim” Xitoy madaniyatining mohiyatini tashkil etadi. Qadimgi "marosim otishma" nafaqat Xitoyning ming yillar davomidagi ajoyib tarixiy sivilizatsiyasidan o‘tib, birlashtiribgina qolmay, balki dunyoga ham chuqur ta'sir ko‘rsatadi. Bu insoniyat tsivilizatsiyasining muhim qismidir. Bu insoniyat sivilizatsiyasi va donoligining kristallanishidir. "Ritual" va "Kamondan otish" mos ravishda qadimgi Xitoydagi oltita san'atdan biri bo‘lib, ular orasida "marosim, musiqa, kamondan otish, qirollik san'ati, xattotlik va sanoq".

Qadimgi Xitoydan "Kamondan otish marosimlari kitobi" g'oyasi Yaponiyaga Edo davrida kiritilgan va Edo davrida yapon kamonidan o‘q otishda "adabiy

kamondan otish" marosimini keltirib chiqargan. Zamonaviy yapon kamondan otishda marosimlar va otishning adolatli kitobi Edo davrining "otish usuli" bilan bir qatorda mamlakat klassikasi hisoblanadi.

Sheyi marosimlari kitobidagi kamondan otishning tabiati, maqsadi va amaliyoti haqidagi bayonotlar Venshaga asoslanadi. “Otishma, fazilatga shunday qaraysan”; "Otish - bu xayrixohlik yo‘lidir. Otish - boshqalarning adolatini qidiradi. Agar siz solih bo‘lsangiz va keyin otib olsangiz, o‘zingizni mag'lub qilganlarni ayblamaysiz, balki o‘zingizni qidirasiz." Otishmachiga oldinda turgan kuchli qo‘ldan xafa bo‘lmasdan, tinchlanishini va tanasi va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishni ayting. Shunday qilib, dushman endi dushman emas, balki o‘zining o‘sishiga hissa qo‘shadigan "boshqa qo‘l" dir. “She Yi” shuningdek, “Konfutsiyning analektlari, Ba Yi”dan janobning hech qanday ishi yo‘q degan parchani keltiradi. uchun jang qilish uchun, agar nizo bo‘lsa, o‘qlar bilan solishtirish kerak, o‘qlarni otib, ular bir-biriga ta'zim qilishdi, keyin esa baland ko‘tarilishdi; otishgandan so‘ng ular zalni aylanib chiqishdi, keyin esa ta'zim qilishdi.Kuchli kamon va chiroyli o‘q baliq ovlash va ov qilish bilan yashagan qadimgi yaponlar uchun eng halokatli qurol edi.O‘shandan beri kamondan o‘q otish. kamondan otish va o‘q otish, otish va ichishning dam olish madaniyati sifatida talqin qilinadi va yapon jamiyati monarx va vazirning solihligidan tug'ilgan., keksa va yoshning tartibi. Qadimgi xitoy odob-axloq qoidalari va “Udumlar kitobi”ning dunyoga ta’sirini sanab bo‘lmaydi.“Tobelik” Xitoy sivilizatsiyasi va an’anaviy tafakkurining mohiyatidir.

Xitoy madaniyatining o‘zagi: Faylasuf Xiong Bingming Xitoy madaniyatining o‘zagi falsafa, Xitoy madaniyatining o‘zagi esa xattotlik ekanligini aytdi. Tanqidchi Vang Jinyu Xitoy madaniyatining o‘zagi Xitoy madaniyatining ko‘plab ajoyib g‘oyalarini to‘plash va takomillashtirish bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi va uning o‘zagi hali ham xattotlik emas, balki mukammal madaniy fikrlar mohiyatining mohiyatidir. faqat turli xil tashuvchilar va tashqi ko‘rinishlardan biri.

Qo‘shni davlatlarga ta'siri

Har bir vazifaviy uslub adabiy tilning rivojlanish bosqichida turg‘un tizimga bog‘liqdir, ammo u bir davrdan keyingisiga o‘tayotganda, ba’zan tez-tez o‘zgaradi. Shuning uchun tilning funksional uslublari tarixiy turkum (kategoriya) hisoblanadi. Ushbu tushunchani isbotlash uchun misollar yetarli darajadadir. Binobarin, vazifaviy uslubning she’riyat (badiiy) uslubi XVI asrning ikkinchi yarmida mustaqil uslub vazifasini bajarishni boshlagan; gazeta uslubi publitsistik uslubdan ajralib chiqqan;

boshqa vazifaviy uslublar kabi notiqlik uslubi ham sezilarli darajada muhim o‘zgarishlarga uchragan.

ASOSIY QISM

Har bir uslubning rivojlanishi standart ingliz va o‘zbek tillari normalarining o‘zgarishi bilan oldindan belgilanadi. Bunga ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishi, ilmiy taraqqiyot va madaniy hayotning rivojlanishi ham katta ta'sir ko‘rsatmoqda. An'anaviy ajralib turuvchi funktsional uslublar — ilmiy (ommabop fan), rasmiy, publisistik (ommabop), so‘zlashuv, badiiy — tilning quyi tizimlari bo‘lib, ularning har biri besh asosiy darajadagi o‘ziga xos: fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va matn tarkibi bo‘yicha xususiyatlarga ega.

Funksional uslublar u yoki boshqa elementlar va tuzilmalarni ishlatish mumkinligi yoki mumkin emasligi, shuningdek ularning aloqa tizimlari bilan ajralib turadi. Masalan, fonetik vositalar notiqlik uslubi uchun muhimdir: talaffuz me'yorlariga rioya qilish, intonatsiyadan keng foydalanish; ilmiy uslub uchun — sintaktik: aniq sintaktik tuzilma, so‘zlarning to‘g'ridan-to‘g'ri tartibi, so‘zlarning keng qo‘llanilishi, har xil aniq va o‘ziga xos tizimlardan keng qo‘llanilishi, matn darajasida: mantiqiy, aniq taqdimot tuzilishi (gazeta yoki jurnal maqolasi). Rasmiy uslubning matni maxsus atamalar (tijorat, yuridik va boshqalar), shtamplar, ixtisoslashtirilgan xorijiy iboralar, qisqartmalar, aralash so‘zlarning mavjudligi, leksik darajada obrazli vositalarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi; sintaktik darajada — murakkab tuzilishlar, fe’lning majhul nisbatidagi gaplarning keng qo‘llanilishi yordamida hosil bo‘ladi.

Funktsional uslublar yozma va og'zaki shaklda uchraydi. So‘zlashuv uslubi qisqa jumlalar, ikki bo‘g'inli so‘zlar, fonetik va sintaktik qisqartmalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Badiiy uslub uchta quyi uslubni birlashtiradi: tilning she'riyat uslubi, hissiy (badiiy) nasr uslubi va drama uslubi. Ushbu quyi uslublarning har biri va alohida quyi uslub uchun ham umumiy xususiyatlar mavjud. Badiiy matnlar ham bir qator qiyinchiliklar mavjud, chunki ular mantiqiy-intellektual ma'lumotlarni majoziy-hissiy ma'lumotlar bilan birlashtiradi.

Ommabop uslubdagi matnlarni o‘qish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu uslubning o‘ziga xos xususiyati: matnlarning bir qismi ilmiy, boshqa qismi — boshqa uslublardagi matnlarga yaqin turadi. Jurnalistikaga oid matnlar siyosiy lug'at, frazeologik birliklar, qisqartmalar, voqeliklar, gazeta bosmalari, iboralar va turli mavzular qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Gazeta va jurnal nashrlari turli xil, jumladan, reklama va hissiy jihatdan jozibali sarlavhalarga ega. Ommabop uslubning ikki turi og'zaki nutqda: notiqlik uslubi va radio va televidenie dasturlarining matni, shuningdek, gazeta uslubi yozma nutqda namoyon bo‘ladi. Ommabop uslubning yozma shakllari — bu insholar (falsafiy, adabiy, axloqiy) va jurnalistik maqolalar (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqalar)dan

iboratdir. Publitsistik uslubning umumiy maqsadi — jamoatchilik fikriga ta'sir qilish, o‘quvchi yoki tinglovchilarni muallif tomonidan berilgan sharhning yagona haqiqiy ekanligiga ishontirish va uni bayon qilingan fikrni qabul qilishga undash. Ommabop uslub aniq va mantiqiy sintaktik tuzilishi bilan biriktiruvchi so‘zlardan keng foydalanish va matnni qismlarga ajratilishi bilan tasniflanadi. Notiqlik uslubi — bu publitsistik uslubning og'zaki shakli hisoblanadi. Tinglovchilar bilan to‘g'ridan-to‘g'ri aloqa yozma va og'zaki nutqning sintaktik, leksik va fonetik xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi. Ushbu uslubning o‘ziga xos xususiyatlari — bu xalqqa to‘g'ridan-to‘g'ri murojaat qilish; ba'zida — so‘zlashuv uslubiga oid so‘zlardan foydalanishi bilan xarakterlanadi. Notiqlik uslubiga jalb qilingan stilistik vositalar kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi. Notiq tez-tez analogiya va metaforalarni ishlatadi, lekin odatda an'anaviy usullarni qo‘llaydi, chunki individual stilistik qurilmalarni idrok qilish qiyin bo‘lishi mumkin.

Ilmiy uslubdagi matnlar keng kitobxonlarga fan va texnikaning yutuqlarini targ'ib qilishga qaratilgan. Odatda materiallar ma'lum miqdordagi raqamli ma'lumotlar, formulalar, diagrammalar va atamalardan foydalangan holda qiziqarli va qulay tarzda taqdim etiladi. E'tiborni jalb qilish uchun takrorlash, ritorik savollar, o‘quvchiga murojaat keng qo‘llaniladi. Ilmiy matn odatda ma'lumot beruvchi sarlavha, masalaning tarixini tavsiflovchi yoki mavzuni tanishtiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ilmiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari ta'kidlangan mantiq, qo‘shimcha dalillar bilan takrorlash, murakkab sintaksis va kasbiy yo‘naltirilgan mavzular bilan xarakterlanadi.

Rasmiy uslub turlicha quyi uslublar yoki turlar bilan ifodalanadi: ish hujjatlari tili; huquqiy hujjatlarning tili; diplomatiya tili; harbiy hujjatlarning tili. Ushbu turdagi aloqa vositalarining asosiy maqsadi ikki tomonni bir-biriga bog'laydigan shartlarni aniqlash va ikki shartnoma tuzuvchi tomonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuvga erishish. Ushbu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati — so‘zlarning to‘g'ridan-to‘g'ri o‘z ma'nosida ishlatilishi. Unda majoziy ma'no qo‘llanilmaydi.

XULOSA

Turli xil funktsional uslublardagi matnlarni o‘rganish, ularning parametrlarini aniqlash, ularning har birida til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish normalari, shuningdek lingvistik va statistik tadqiqotlar nafaqat zarur, balki til va uni o‘rganishning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Гальперин И. Р. Стилистика английского языка. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», Изд.5, 2013. 336 с.

2. Тихонова Е. В. Медиатекст как инструмент вербальной диагностики конфессиональной напряженности // Мировое культурно-языковое и

политическое пространство: инновации в коммуникации: сборник научных трудов. М.: ТрансАрт, 2014. С. 172–186.

3. Шомақсудов А. ва бошқалар, Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983, 9- бб.

4. M.Xalilova: “O‘zbek tili stilistikasi asoslari”, “Farg‘ona” nashriyoti, 2009. 6-бет

JALOLIDDIN MANGUBERDINING MO‘G‘ULLARGA QARSHI KURASHI

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
Tel: 93-190-26-06 e-mail: boydedayevdostonbek7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7324393

Annotatsiya: Ushbu maqolada mo‘g‘ul bosqini davrida ko‘plab qahramonlik ko‘rsatgan, mo‘g‘ullarni bir necha marta mag‘lub etgan hamda yengilmasligi bilan Chingizxonning e’tirofiga sazovor bo‘lgan buyuk sarkarda va davlat arbobi-Jaloliddin Manguberdining tarixiy qahramonliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar, Chingizxon, Ozarbayjon, mo‘g‘ullar, jang, qahramon, sarkarda, qo‘shin.

Kirish: XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati va Chingizxon davlatining chegaralari bir-biriga tutashib ketishi natijasida bu davlatlar o‘rtasidagi yaxshi aloqalar asta-sekin salbiy tomonga yura boshladi. Aloqalarning tobora yomonlashuvi ikki davlat o‘rtasidagi to‘qnashuvni muqarrar qilib qo‘ydi. Natijada Chingizxon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlati yakdil mudofaa taktikasini ishlab chiqa olmaydi. Mo‘g‘ullar bosqini tobora kuchayayotgan bir davrda siyosiy kurash maydoniga Alouddin Muhammadning o‘g‘li- Jaloliddin Manguberdi kirib keldi.

Asosiy qism: Chingizxon Xorazmshohlar saltanatini qo‘lga kiritish uchun ko‘plab xiylalarni ishga solmoqda edi. Ana shunday xiylalardan biri- O‘tror hokimi Inolchiqning Chingizxon yuborgan karvonni qirib tashlashi bo‘ladi. Bu aslida Chingizxonning xiylasi bo‘lib, u shu bahonada Xorazmshohlar ustiga yurishni boshlab yuboradi. Urush oldidan Alouddin Muhammad harbiy kengash chaqiradi va unda bir qator takliflar o‘rtaga tashlanadi: barcha harbiy kuchni (600 ming kishi atrofida) bir yerga to‘plab, harbiy yurishda toliqib turgan dushmanga Sirdaryo bo‘yida hujum qilish; G‘aznaga va xatto Hindiston tomon chekinib o‘sha yerda jang olib borish (Jaloliddin rejasi) [1, B. 3]. Lekin Alouddin Muhammad bunga rozi bo‘lmaydi va natijada Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi yirik hududlar qo‘ldan ketadi. Undan keyin1220-yil Buxoro, Samarqand, 1221-yili Urganch, Termiz qo‘ldan ketadi. Bu orada Alouddin Muhammad plevrit kasalligidan vafot etadi[2, B. 534]. Jaloliddin taxt vorisi bo‘lishiga qaramay, buvasi Turkon Xotun Qutbiddin O‘zloqshohni valiahd etib tayinlaydi. Shundan so‘ng, Jaloliddin va mo‘g‘ullar o‘rtasida haqiqiy kurash boshlanadi.

Jaloliddin Niso yaqinida o‘zining 300ta askari bilan mo‘g‘ullarning 700 kishilik otryadini mag‘lubiyatga uchratadi. Bu g‘alaba mo‘g‘ullarning “afsonaviy qudrati” haqidagi mish-mishlarga chek qo‘yadi. Bu orada Jaloliddinning ukalari: O‘zloqshoh,

Oqshoh va Ruknіddin G‘ursanjiylar mo‘g‘ullar tomonidan turli davrlarda o‘ldiriladi. Yana bir ukasi G‘iyosiddin Kirmon hukmdori bo‘lib, Jaloliddinga Erondagi kurashlarida ancha yordam beradi. Jaloliddin esa Nishopurga kelib, mo‘g‘ullarga qarshi qo‘shin to‘plashga intiladi. Lekin mahalliy noiblar uni qo‘llashmaydi va bu yerda turish xavfli bo‘lgani uchun Jaloliddin G‘aznaga yo‘l oladi. Jaloliddin G‘aznaga yetmasdan avval Hirot hokimi va qaynotasi bo‘lmish Amin Malik bilan birlashadi va Qandahor qal’asini qamal qilayotgan mo‘g‘ullar ustiga yurish qiladi. Bu jangda Jaloliddin harbiy ilm tarixida ilk bor “piyoda yoyandozlar”ni mo‘g‘ullarning otliq askarlariga qarshi qo‘yadi. Uch kunlik jangdan so‘ng mo‘g‘ullar mag‘lub etiladi va Jaloliddin G‘aznaga ketadi.

G‘aznada Jaloliddinni katta tantana bilan kutib olishadi. Bu yerda Jaloliddinning xizmatiga Sayfiddin O‘g‘roq al-Xalajiy, Balx hokimi A`zam Malik, afg‘onlar sardori Muzaffar Malik, qarluqlar rahbari al-Hasan qarluq o‘z qo‘shini bilan qo‘shiladi. Natijada Jaloliddinning qo‘shinlari soni 90-130 ming kishiga yetadi. Bu qo‘shin bilan Jaloliddin Valiyon qo‘rg‘onini qamal qilayotgan Tekechuk va Molgor boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlarini yengadi. Bu jangda mo‘g‘ullarning 100dan oshiq kishisi halok bo‘ladi.

Endi Chhingizxon Jaloliddinga qarshi Shiki Xutuxu boshchiligida qo‘shin yuboradi. 1221-yilning kuzida shimoliy Afg‘onistonning Lagar daryosi bo‘yidagi Parvon dashtida Shiki Xutuxu qo‘shiniga qarshi jang bo‘ladi. Birlashgan qo‘shinga Jaloliddinning o‘zi rahbarlik qilib, o‘ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin O‘g‘roq boshchilik qilishadi. Jaloliddin o‘zi Shiki Xutuxu qo‘shini o‘rtasiga bostirib kirib, uning xarbiy tartiblarini buzdi va mo‘g‘ul bayroqlarini otlarining oyoqlari ostida poymol qildi, lashkarboshisini esa o‘z joyini tashlab qochishga majbur qildi[3, B. 24]. Parvon jangida mo‘g‘ullar mutlaq mag‘lubiyatga uchraydi va Shiki Xutuxu Chingizxon huzuriga zo‘rg‘a yetib boradi. Bu g‘alaba Movarounnahr va Xuroson uchun juda ahamiyatli bo‘ladi. Mo‘g‘ullarning “ilohiy”, “yengilmas” qudrati haqidagi afsonalarga butunlay chek qo‘yiladi. G‘alaba ta’sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo‘g‘ullarga qarshi isyon boshlanadi. Buxoroda esa mahalliy aholi mo‘g‘ullarni siqib chiqarishga erishadi. Kuchayib borayotgan Jaloliddin katta xavf ekanligini anglagan Chingizxon Jaloliddinga qarshi katta qo‘shinga o‘zi rahbarlik qiladi.

Parvon jangidagi o‘ljani taqsimlashda Amin Malik va Sayfiddin Ag‘roq o‘rtasida nizo kelib chiqadi. Sayfiddin Ag‘roq va boshqalar qo‘shindan ajralib ketgach, Jaloliddinning qo‘shini sezilarli darajada kuchsizlanadi. Jaloliddin ichak kasali bilan og‘riydi, lekin shu holatda ham mo‘g‘ullar Gardizga joylashganini bilib, u yerga yurish qiladi hamda O‘rxon boshchiligidagi mo‘g‘ul otryadini mag‘lub etadi. Keyichalik Chingizxonga qarshi oz qo‘shin bilan kurashib bo‘lmasligini anglab, Sind daryosi bo‘yiga chekinishga qaror qiladi.

Uzoq ta`qiblardan so‘ng, ikki o‘rtada 1221-yil 25-noyabr, payshanba kuni Sind daryosi bo‘yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlanadi. Jaloliddin va uning qo‘shini bu jangda ham juda ulkan jasorat ko‘rsatadi. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo‘shini ustunlikka erisha boshlaydi. 10 ming kishilik mo‘g‘ul pistirmasi Jaloliddinning qaynotasi Amin Malik qo‘mondonligidagi o‘ng qanotni tor-mor etadi[4]. Bu jangda Jaloliddinning taxminan 7-8 yoshli o‘g‘li Chingizxon qo‘shini tomonidan o‘ldiriladi. Shuningdek, bu jangda Amin malik va boshqa ko‘plab sarkardalar ham halok bo‘lishadi. Chingizxon Jaloliddinni tiriklayin qo‘lga olishga buyruq beradi. Lekin Jaloliddin shaxsiy bahodirligi tufayli mo‘g‘ullar qurshovini yorib chiqib, Sind daryosi bo‘yiga yetib keladi. Daryo bo‘yida uni onasi Oychechak va haramidagi boshqa ayollar kutib turishar edi. Mo‘g‘ullar qo‘liga tushishni istamagan ayollarining iltimosiga ko‘ra ularni suvga cho‘ktirish haqida buyruq berishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng, Jaloliddin oti bilan sakrab, Hindiston tomonga o‘tib oladi. Jaloliddinning ushbu jasoratini Mirzo Ulug‘bek quyidagicha tasvirlaydi: “Sulton Jaloliddin bin Sulton Muhammad Xorazmshoh o‘zini suv-u olov o‘rtasida ko‘rdi, chunonchi bir tarafida keskir qilichlar olov sochardi, boshqa tarafida esa qonxo‘r daryo turardi. Hech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo‘q edi. Noiloj jangga kirishdi. Bahodirlik otini kurash maydoniga solib, totor kofirlardan ko‘pini halokat tuprog‘iga qordi va hech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami doston tirik bo‘lganda, unga bo‘lgan muhabbat yopig‘ini o‘z yelkasiga solgan bo‘lardi. Agar kumushtan Isfandiyor bu jangni mushohada qilganda, uning xizmatida qullik lavozimini jonu dili bilan qabul qilgan bo‘lardi”[5, B. 318].

Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o‘g‘illariga qarata: “Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan xali ulug‘ ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!”- deydi va orqasidan ta’qib etishni taqiqlaydi.

Jaloliddin Hindistonda o‘ziga nisbatan qarshiliklarni yenggach, bu yerda ham mo‘g‘ullarga qarshi tarafdor guruh shakllantirishga erishadi. Jaloliddin hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish hamda Sind, Uchcha, Mo‘lton, Lohur, Peshovar hokimi Nosiriddin Qubacha tan oladilar. Eron va Xurosondan bir qator amirlar ham Jaloliddinga kelib qo‘shiladilar.

Hindistondagi mahalliy hokimlarning Jaloliddinni siqib chiqarishga intilishi sababli, Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettirish uchun 1223-yil oxirarida yana g‘arb tomonga yo‘l oladi. O‘rniga noib etib Jahon polvon O‘zbekni qoldiradi.

Jaloliddin Eron va Ozarbayjonning ayrim hududlarini egallaydi. Keyin mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borish maqsadida ukasi G‘iyosiddin Pirshoh, Bag‘dod xalifalari az-Zohir, so‘ngra al-Muntasir, Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin mo‘g‘ullar qasosi hamda Jaloliddin hokimiyati

kuchayishidan cho‘chigan ko‘pchilik musulmon hukmdorlari u bilan ittifoqqa rozi bo‘lmaydilar. Natijada Jaloliddin Gurjistonni ketma-ket ikki marta bosib oladi. Ozarbayjon, Shirvon, Gurjiston Jaloliddinning o‘limiga qadar uning qo‘lida qoladi.

1227-yil kuzida mo‘g‘ullarning Eronga kirib kelish niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi jangga tayyorgarlik ko‘radi. Mo‘g‘ullarning o‘sha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona jazolanadi.

1227-yil 5-sentabrda Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no‘yon qo‘shini bilan Isfahon yaqinida xal qiluvchi jang bo‘lib o‘tadi. Jang payti G‘iyosiddin Pirshoh xoinlik qilib, Luristonga chekinsada, Jaloliddin baribir bu jangda g‘olib bo‘ladi va Taynal no‘yon : “Haqiqatan ham o‘z davrining bahodiri va tengqurlarining dohiysidir!”,- deb uning jasoratiga qoyil qoladi. Xatto mo‘g‘ul xoni Tuli sulh taklif qilganda ham Jaloliddin buni rad etadi.

1229-yil Jaloliddin ukasi G‘iyosiddinni afv etadi. Biroq tez orada ukasi yana fitnachilarga aldanadi va bu safar uning o‘zi qurbon bo‘ladi. Natijada Jaloliddin fitnachilarni jazolab, Kirmonda tinchlik o‘rnatadi. Xorazmshoh Jaloliddin Kirmon, Fors, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Gurjiston va unga tutash yerlarda katta davlat barpo etishga muvaffaq bo‘ladi.

Bu orada ayrim musulmon amirlari mo‘g‘ullar bilan birlashib, Jaloliddinga qarshi ittifoq tuzishdi. Jaloliddin va ittifoqchilar qo‘shini o‘rtasidagi birinchi jang 1230-yil 7-avgustda Yassi Chaman (Arzinjon yonida) tekisligida bo‘lib o‘tdi. Jaloliddin ittifoqchilarni yengdi, ammo ularni oxirigacha ta’qib etmadi. Bu hol ularga qo‘l keldi.

1230-yil 10-avgustida Ko‘niya sultoni, Xims hokimi, Damashq hokimi, Xartabart hokimi, Halab hokimi, Mayafariqin hokimi va Baynas hokimlari birlashgan ittifoqining ikkinchi jangida Jaloliddin mag‘lub etildi. Ismoiliylar esa butkul xoinlik yo‘lini tutib, Jaloliddinning mag‘lubiyati to‘g‘risida mo‘g‘ullarga yashirin noma ham yuboradilar. Jaloliddin mag‘lubiyatidan foydalangan mo‘g‘ullar uning Ozarbayjonning Mug‘on, Shirkabutdagi qo‘shin yig‘ishi mumkin bo‘lgan joylariga qo‘qqisdan zarba berishdi. 1231-yil bahorida u Ganjga kelib, mo‘g‘ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga maktub yo‘lladi. Maktubga 17 kun javob kutdi, lekin hech qayerdan javob kelmadi. U endi Arrondan chiqib, Kichik Osiyoda kuch to‘plamoqchi edi. Ammo Amid amiri Malik al-Ma’sud taklifiga ko‘ra Ko‘niya sultoniga qarshi kurash rejasini qabul qiladi.

1231-yil avgustda Amid yo‘lida Jaloliddinga mo‘g‘ullar hujum qilib qoladi. Uni 15 chog‘li mo‘g‘ul askarlari ta’qib qildi. Jaloliddin sheriklaridan ajrab, Mayafariqin yaqinida Ayn-ad-dar qishlog‘iga keladi va kurdlar qo‘liga tushadi. Bu voqea quyidagicha sodir bo‘ladi:

“…Shundan so‘ng sulton toqqa ko‘tariladi. Tog‘ yo‘llarida esa kurdlar

talonchilik maqsadida pistirmalar qurgan bo‘ladi. Ular, odatdagidek, sultonni ham tutib olishadi va xuddi boshqalarni talagani kabi uning ham bor- yo‘g‘ini tortib olishadi[6, B. 418]. Ular Jaloliddinnni o‘ldirishmoqchi bo‘lganda u yo‘lto‘sar bosqinchilarning boshlig‘iga maxfiy ravishda o‘zining sulton ekanligini bildirib, al-Malik al-Muzaffar Shahobiddin huzuriga olib borsa evaziga mukofotlanishini bildiradi. Qaroqchilar yo‘lboshchisi bunga rozi bo‘ladi va Jaloliddini chodirda, xotinini oldida qoldirib, o‘zi toqqa ot olib kelish uchun ketadi”.

“Bu odam chodirda yo‘q paytida bu yerga boshqa bir g‘alamis, iflos, qo‘liga nayza ushlagan kurd kirib keladi. Keyin Xilotda o‘lgan ukasining xuni uchun Jaloliddinga shunday nayza sanchadiki, boshqa nayza sanchishga zarurat qolmaydi. Shu tariqa uning jonini boqiy dunyoga yo‘llaydi”.

Oradan biroz vaqt o‘tgach al-Malik al-Muzaffar odamlarini toqqa yubordi. Ular sultonning buyumlari- oti, egar-jabdug‘i, mashhur qilich va sochini solib yuradigan naychasini topadilar[7, B. 295]. Bu buyumlar al-Malik al-Muzaffar huzuriga olib kelinib, o‘sha kunlar bu yerda hozir bo‘lgan sulton mulozimlariga, shuningdek Uturxon, amir-oxur Talsob va boshqa yaqin kishilariga ko‘rsatilganda, ular ushbu narsalar sultonniki ekanligini tasdiqlaydilar.

Bu voqea 1231-yil 15 yoki 17-avgustda ro‘y bergan[8, B. 127]. Jaloliddin Manguberdining murdasi Mayafariqinga dafn etilib, mo‘g‘ullar kirib kelgudek bo‘lsa, haqoratlanmasin degan maqsadda qabri yer bilan tekislab yuboriladi.

Bu insonning ulug‘vorligni tarixga muhrlash maqsadida mustaqillikdan so‘ng ko‘plab tadbirlar amalga osirildi. Shu kabi ijobiy ishlardan biri 2000-yil 30-avgustda Jaloliddin Manguberdi ordenining ta’sis etilishi bo‘ldi[9, B. 80].

Xulosa: Jaloliddin Manguberdi o‘zbek davlatchiligi tarixidagi juda katta shaxslardan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning buyuklik darajasi, ko‘rsatgan jasoratlari, aqliy jihatdan yetukligi, harbiy barkamolligini bugungi maqola orqali ko‘rdik. Uning eng katta buyukligi shunda bo‘ldiki, qayerga hujum qilmasin, o‘sha yerni jahannamga aylantirayotgan, toptayotgan Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar aynan Jaloliddinga kelganda ensasi qotadigan darajada boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Qiziq tomoni shundaki, bu voqea- hodisalar mo‘g‘ullar eng cho‘qqiga chiqqan, raqib tanlamay g‘alaba qozonayotgan davrga to‘g‘ri kelib, Jaloliddin aynan shu davrda sodir bo‘lgan 14 jangning naq 13tasida zafar quchdi. So‘nggi mag‘lubiyati ham uning kuchsizligi emas, balki yaqinlarining xiyonati hamda dushmanlarning ittifoqi natijasi bo‘ldi. Ha, Jaloliddindek buyuk siymoga eng ko‘p zarar bergan omil xiyonatdir.

Xattoki uning o‘limi ham uning shaxsiyatiga munosib bo‘lmadi. Oddiy kurd kishisining qo‘lida o‘lim topdi. Lekin bunda ham ramziy ma’no bor, ya’ni mo‘g‘ullar har qancha hharakat qilmasin baribir ularga Jaloliddinni o‘ldirish nasib etmadi.

Bugun biz yoshlar Jaloliddin Manguberdi siymosidan mardlik, jasurlik,

vatanparvarlik, bahodirlik, harbiy mahorat, chidamlilik, intiluvchanlik hamda yengilmaslik kabi hislatlarni o‘rganishimiz hamda ularga amal qilishimiz zamon talabidir. Shundagina bizning oramizdan ham davlatimizni yuksaltira oladigan Jaloliddinlar chiqadi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи: (Энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар. – Т.: Шарк, 2001.
2. Sagdullayev A. S. O‘zbekiston tarixi. – T.: VNESHINVESTPROM, 2019.
3. Содиков Х. Султон Жалолиддин Мангуберди. – Т.: ART FLEX, 2009.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sind_daryosi_bo%CA%BByidagi_jang
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi. K.1. – T.: Sharq, 2010.
6. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Жалолиддин Мангуберди хайоти/Матёкубов тарж./ - Т.: Узбекистон- Ёзувчи, 1999.
7. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Жалолиддин Мангуберди хайоти. – Т.: O‘zbekiston, 2006.
8. Жабборов И. Буйук Хоразмшохлар давлати. – Т.: Шарк, 1999.
9. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan uchinchi nashr. – T.: Sharq, 2017.

ҒЎЗА МАЙДОНЛАРИДА УЧРАЙДИГАН БЕГОНА ЎТЛАР ВА УЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРАЛАРИ

Анваржон Хайдаров
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий-тадқиқот институти Фарғона филиали катта илмий ҳодими
Аҳаджон Жамолов
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий-тадқиқот институти Фарғона филиали катта илмий ҳодими
Аброржон Эргашев
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий-тадқиқот институти Фарғона филиали тадқиқотчи
https://doi.org/10.5281/zenodo.7324398

Аннотация: Бегона ўтлар ғўза ҳосили ва унинг сифатига салбий тасир кўрсатади. Бегона ўтлар тупроқдан сувни ва озуқа моддаларни ғўзага нисбатан кўп ўзлаштириши ҳисобига ғўзага озуқа моддалар кам етиб боради. Бундан ташқари бегона ўтлар ҳар хил касаллик ва зараркунандаларнинг оралиқ хўжайини бўлиб хизмат қилади. Бегона ўтлар ҳосилни йиғиб олишда ҳам қийинчиклар туғдиради.

Калит сўзлар: Бегона ўтлар, уруғ, серуруғлик, тарқалиш, бир уруғ паллали, икки уруғ паллали, кам йиллик, кўп йиллик, зарар, қарши кураш, гербицидлар.

Бегона ўтлар далаларда қишлоқ хўжалиги экинлари ичида, далалар атрофида, экин экиладиган бўш ерларда, ариқлар ва йўллар бўйларида, уйларга яқин ва бошқа ҳар хил жойларда ўсадиган ўсимликлар бўлиб, дунёда уларнинг бир неча минг тури бор. Улардан Ўзбекистоннинг суғориладиган ерларида 400 тадан кўпроғи қайд этилган бўлиб, ғўза майдонларида 74 та тури учрайди. Далаларда тарқалишига қараб бегона ўтларни 4 та тахминий гуруҳга бўлиш мумкин:

1) Кенг 2) Ўртача 3) Кам 4) Жуда кам тарқалган бегона ўтлардир.

Шу билан бирга, бегона ўтларнинг тарқалиши нафақат ҳар хил вилоят ва туманларда, ҳатто алоҳида далаларда ҳам кучли фарқ қилиши мумкин, чунки ўтлар турларининг табиий тарқалиши, олдинги йилги экинларни етиштиришда қўлланган чора тадбирларнинг ва бошқа омилларнинг таъсирида ҳар хил бўлиши мумкин.

Бегона ўтлар билан самарали курашиш учун уларнинг асосий биологик хусусиятларини, жумладан яшаш муддати, кўпайиш усули ва фаол ўсиш

вақтларини билиш зарур. Улар қуйидаги хусусиятларга эга:

- Серуруғлик. Битта ўсимлик бир неча юз ва минглаб уруғ ҳосил қилиши мумкин. Бир туп олабўта 100 минг, шўра эса 500-700 минг уруғ бера олади. Шунинг учун ҳам уруғ ҳосил қилган бегона ўтлар далани ифлослантирувчи асосий манба ҳисобланади;
- Уруғларни шамол ва сув ёрдамида узоқ масофаларга тарқалиш қобилияти;
- Тупроқда уруғлар узоқ муддатдан сўнг ҳам униб чиқиш қобилиятини сақлаши. Итқўноқ уруғи–15, қоракурмак–13, очамбити–35, эшакшўра ва семизўт – 40, қўйпечак –50 ва гибиск уруғи эса 57 йилдан сўнг ҳам униб чиқиши мумкин;
- Уруғларнинг тупроқда ҳар хил вақтда униши; масалан эшакшўранинг уруғлари 1 ёки 40 йилдан сўнг униб чиқиши мумкин;
- Кўп йиллик бегона ўтларнинг кучли, ривожланган, таркибида озуқа моддалари кўп бўлган илдиз ва илдизпоялари мавжудлиги;
- Баъзи бегона ўтларнинг уруғлари гўнг, сув ва силосда ҳамда молларнинг ошқозонидан ўтгандан сўнг ҳам, униб чиқиш хусусиятини сақлаши;
- Кўп йиллик бегона ўтларнинг фаол вегетатив кўпайиш қобилияти. Қўйпечак илдизининг 2-3 см га тенг бўлакчаларининг ҳар биридан янги ўсимлик ривожлана олади. Айниқса илдизпояли бегона ўтлар янги ўсимликларни кўплаб ҳосил қилиш қобилиятига эга.

Уруғ муртагидаги бошланғич сонига қараб экин ва бегона ўтлар бир уруғпаллали (буғдой, ғумай, қоракурмак каби) ва икки уруғпаллали (ғўза, қўйпечак, семизўт ва ҳ.к.) ўсимликларга бўлинади. Бегона ўт бу гуруҳлардан қайси бирига мансублигини ажрата олиш муҳим, чунки гуруҳларнинг ҳар бирига қарши махсус гербицидлар қўлланилади.

Яшаш муддати ва кўпайиш усулига қараб ҳам бегона ўтлар 2 гуруҳга бўлинади:

1) кам (1 ва 2) йиллик бегона ўтлар уруғ бергандан сўнг қуриб қолади, фақат уруғ орқали кўпайади ва тарқалади;

2) кўп йиллик бегона ўтлар уруғ бергандан сўнг ҳам ривожланиши давом этади ва келгуси йили яна уруғ ҳосил қилиши мумкин. Ҳам уруғлари, ҳам вегетатив органлари воситасида кўпайиши ва тарқалиши мумкин.

Бир уруғ паллали бир йиллик бегона ўтлар

Бошоқдошлар оиласи *(Gramineae)*. Қоракурмак (шамак) – кенг тарқалган ва жуда зарарли бегона ўт. Бўйи 100 см гача ўсади. Июн-сентябр ойларида гуллайди. Бир туп ўсимлик 60 мингтагача уруғ беради. Уруғи 13 йилгача униб чиқиш хусусиятини йўқотмайди. Тупроқни ифлослантиради.

Итқўноқ – ўртача даражада тарқалган. Ҳаво ҳарорати 15 ^{0}C дан ошгандан

сўнг уруғидан униб чиқади. Бўйи 40-50 см гача ўсади. Илдизи бақувват, 1,5 м га етади. Бир туп ўсимлик 6000 донагача тез тўкилиб кетадиган уруғ бериши мумкин. Уруғи униб чиқиш қобилятини 15 йилгача сақлайди. Июн-сентябр ойларида гуллайди. Тупроқ намлигини қочиради.

Бир уруғ паллали кўп йиллик бегона ўтлар

Ажриқ – кенг тарқалган ва жуда зарарли бегона ўт. Бўйи 10-50 см гача ўсали, пояси ер сатҳидан кўтарилган, тагидан бошлаб шохлайди. Уруғи ва илдизпоялари воситасида кўпайади. Илдизпоялари ер остида тез ўсиб, тарқалади, иссиқ ва қурғоқ шароитда ҳам ҳаётчанлигини йўқотмайди. Илдизпоянинг 1 дона тирик куртакли, бўлакчаси ҳам янги ўсимлик ҳосил қила олади.

Ғумай – кенг тарқалган ва жуда зарарли бегона ўт. Март-апрел ойларида уруғидан униб чиқади ва илдизпоясидан кўкаради. Илдизпояси йўғон, кўп йиллик, тупроқда 10-40 см чуқурликда жойлашади. Бўйи 1,5-2 м гача ўсади. Июн-октябр ойларида гуллайди ва мевалайди. Илдизпоянинг бир дона тирик куртакли, узунлиги 1 см бўлган бўлакчаси ҳам янги ўсимлик ҳосил қила олади.

Ҳилолдошлар оиласи. Саломалайкум – кенг тарқалган ва зарарли бегона ўт. Бўйи 15-30 см, пояси уч қиррали. Июл-сентябр ойларида гуллайди ва мевалайди. Уруғи ва ингичка илдизпояларидаги тугунаклари воситасида кўпаяди. Уруғдан чиққан битта ўсимлик бир мавсумда кенглиги 1 м бўлган майдонда ва 20-40 (энг кўпи билан 80) см чуқурликда 53 тагача тугунча ҳосил қилиши мумкин.

Икки паллали бегона ўтлар

Кам йиллик бегона ўтлар. Жағжағ(очамбити) – кенг тарқалган ўсимлик. Бўйи 10-20 см, бир туп ўсимлик 73 мингтагача уруғ беради. Қишлайдиган ва қишламайдиган ҳиллари мавжуд. Қишламайдиганлари эрта баҳорда уруғдан униб чиқади, март-сентябр ойларида гуллайди, апрел-октябр ойларида мевалайди. Қишлайдиганлари кузда розетка ва поя чиқаради.

Эшакшўра – кенг тарқалган ва зарарли бир йиллик бегона ўт. Баҳорда ҳарорат 20 ^{0}C га етганда қишлаган уруғдан униб чиқади. Июн-июл ойларида гуллаб, июл-сентябрда мева тугади. Бўйи 100 см гача ўсади, бир туп ўсимлик 1 миллионтагача уруғ беради. Тупроқда 5 см дан чуқурда жойлашган уруғлари унмайди, унувчанлигини 5 йилгача сақлайди.

Дағалканоп – ўртача даражада тарқалган 1 йиллик бегона ўт. Бўйи 50-250 см. Июн-август ойларида гуллаб, июл-октябр ойларида мева тугади. Уруғи билан кўпайади. Бир ўсимлик 1800 тагача уруғ беради.

Бангидевона – кам тарқалган бир йиллик бегона ўт. Нохуш ҳид чиқаради. Бўйи 25-100 см. Май-сентябр ойларида гуллайди, июл ойидан кузгача мевалайди. Бир туп ўсимлик 24 мингтагача уруғ беради.

Итузум – кенг тарқалган, жуда зарарли, бир йиллик бегона ўт. Бўйи 20-75 см. Мпрт-апрел ойларида униб чиқади. Июн-октябр ойларида гуллайди ва июл ойидан бошлаб мевалайди. Уруғлари билан кўпайади. Уруғлари сув орқали ва қушлар воситасида тарқалади. Бир туп ўсимлик 40 мингтагача уруғ беради.

Семизўт – кенг тарқалган бир йиллик бегона ўт. Бўйи 10-35 см, пояси ва барглари серэт, ётиб ёки бироз кўтарилиб ўсади. Май ойининг охиридан ноябргача гуллайди ва мевалайди.

Юлдузўт – кам ёки жуда кам тарқалган бир йиллик бегона ўт. Бўйи 10-80 см. Пояси серэт, ётиб ёки бироз кўтарилиб ўсади. Март-май ойларида гуллайди ва мевалайди.

Шўра – кенг тарқалган бир йиллик бегона ўт. Апрел ойида униб чиқади, июн-сентябр ойларида гуллайди ва мевалайди. Бўйи 15-150 см. Сершох, бақувват, илдизи 1-2 м гача ўсади. Бир туп шўра 100 мингдан 7 миллионгача уруғ бериши мумкин. Бир ўсимликда 3 хил уруғ ҳосил бўлиши мумкин:

1) йирик, ясси, қўнғир, етилгандан сўнг 3 кун ичида унади;

2) бироз кичикроқ, қора тусли ёки яшил-қора, етилгандан сўнг кейинги йили унади;

3) жуда майда, қора, думалоқ пишгандан сўнг фақат 2 йилдан кейин унади. Уруғлари янги гўнг, ёмғир ва сув воситасида кўпайади.

Бегона ўтларнинг зарари

Бегона ўтлар ғўза билан майдон, намлик, озуқа моддалар ва қуёш нури учун рақобат қилади ва натижада тола ҳосили ва сифатини камайтиради, ҳосилни етиштириш қийматини оширади, ҳосилни йиғишни қийинлаштиради. Транспирация жараёни жуда фаоллиги сабабли, ҳайдалган ерларда бегона ўтлар маданий экинларга нисбатан 330-1900 марта кўпроқ сувни ўзлаштириди, тупроқ намлигини қочиради ёки уни қуритади. Озуқа моддаларни, айниқса азотни кескин камайтиради.

Бегона ўтлар билан мавсум бошида эрта зарарланган далаларда ҳосил ва тола сифати кўпроқ, кеч зарарланганларида эса камроқ йўқотилади. АҚШда ўтказилган тажрибалардан маълум бўлишича, бегона ўтларнинг чигит униб чиққан пайтдан бошлаб 8 ҳафта мобайнида ғўза билан рақобатда бўлиши уларнинг кейинги 8 ҳафта давомидаги рақобатига нисбатан экинларга анча кўпроқ зарар келтирган (Kelly, Thullen, 1989).

Бегона ўтларнинг пахта ҳосилига таъсири уларнинг тури ва даланинг зарарланиш даражасиги боғлиқ. Мавсум бошида, айниқса ниҳоллар униб чиққан кундан бошлаб 3 ҳафта ичида, далани бегона ўтлардан тоза ҳолда ушлаб туришнинг ғўза ҳосили учун жуда муҳимлиги исботланган. Масалан, бутун ўсув даврида итузум билан зарарланган даладан 13,7 ц/га ҳосил олинган бўлса, дастлабки 3 ҳафта ичида экин ушбу бегона ўтдан тоза тутилганда ҳосил 38,9

ц/га ни ташкил этган. Айни шундай қонуният бошқа бегона ўтлар билан ўтказилган тажрибаларда ҳам исботланган: бутун ўсув даврида ғумай билан зарарланган даладан 4,4 ц/га, дастлабки 3 ҳафта ғумай бўлмаганларидан эса 32,4 ц/га ҳосил олинган. Бутун ўсув даврида бу бегона ўтни назорат қилинганда ҳосилдорлик 40-41 центнерни ташкил этган.

Қоракурмак ҳосилга салбий таъсири бўйича ғумай ва итузумдан ҳам ашаддийроқ эканлиги тажрибалардан маълум бўлган. Бегона ўт бўлмаган назоратда 41 ц/га ҳосил олинган бўлса, 6, 9, 12, ва 25 ҳафта давомида қоракурмак билан зарарланган далаларда пахта ҳосили тегишли равишда, 24, 69, 92 ва 98 фоизга камайган. Юқорида кўрсатилган даврлар мобайнида саломалайкум билан кучли зарарланган далаларда 12-34 фоиз ҳосил нобуд бўлган.

Юқорида кўрсатилган ва баъзи бошқа тажрибаларда аниқланишича, бегона ўтлар билан курашилмасдан, ўз ҳолига ташлаб қўйилган далалар кўпи билан 3 йил ичида пахта етиштириш учун иқтисодий томондан яроқсиз ҳолга келар экан.

Бегона ўтлар бевосита зарар келтириши билан бирга, билвосита ҳам зиён кўрсатади. Улар касаллик қўзғатадиган паразит замбуруғлар учун қўшимча хўжайин сифатида хизмат қилиб, касалликлар кўпайишига, тарқалишига ва ғўзага ўтиб, зарарлашига олиб келади. Мисол учун ғўзанинг ризоктониоз касаллиги учун олабўта, эшакшўра, қоракурмак ва саломалайкум, қора илдиз чириши учун ажриқ, қоракурмак, эшакшўра ва сутчўп, вертициллиоз сўлиш касаллиги учун эса бангидевона, дағалканоп, тугмачагул, эшакшўра, олабўта, янтоқ, қўйтикан, қизилмия ва бошқа бир қатор бегона ўтлар қўшимча хўжайинлардир (Головин, 1953; Климова, 1979; Johnson ва бошқа.; 1980, Vargas ва бошқа., 1996).

Бегона ўтлар зарарли ҳашаротлар учун ҳам муҳим қўшимча хўжайин, ҳам озуқа манбасидир. Кўп зарарли ҳашаротлар олдин бегона ўтларда озиқланиб кўпайади, сўнгра эса ғўзага (ва бошқа экинларга) ўтади. Мисол учун баъзи қандалалар ғўзага олабўта, эшакшўра ва бошқа бегона ўтлардан тарқалади.

Бегона ўтларга қарши кураш чоралари

Шартли равишда бегона ўтлар билан кураш тадбирлари 2 гуруҳга – олдини олувчи ва қириб битирувчи чораларга бўлинади.

Олдини олувчи чоралар бегона ўтлар уруғларининг ҳар хил манбалардан далага келишин бартараф қилишга қаратилган ва қуйидаги усулларни ўз ичига олади:

–Чигитни бегона ўт уруғларидан тозалаш;

–Далада, дала атрофларида, йўллар ва ариқлар бўйида ва экилмаган ерлардаги бегона ўтларни ўриб олиш ёки ҳайдаб йўқотиш;

–Гўнгни фақат яхши чиритиб қўллаш; тажрибаларда яхши чиримаган қорамол гўнгида ажриқ, кўк иткўноқ, қоракурмак, эшакшўра ва шўра уруғлари кўплаб учраши аниқланган.

Қириб битирувчи чоралар бегона ўтларни, уларнинг уруғлари ва илдизларини йўқотишга қаратилган бўлиб, ўз ичига агротехник ва кимёвий кураш усулларини олади.

Агротехника усуллари Ўзбекистонда бегона ўтлар билан курашишнинг асосини ташкил қилади.

Уруғлик чигитни ҳаво ва тупроқ ҳарорати қулай пайтда экиш ниҳоллар тез ўсиши ва тупроққа соя бериб бошлашини таминлайди, натижада кўпчилик бегона ўтларнинг уруғлари униши ва ўсиши камайади. Умуман ғўза ниҳоллари ўсишига ижобий таъсир кўрсатувчи барча чора- тадбирларни қўллаш, жумладан юқори сифатли уруғлик чигит экиш, ҳашарот, касаллик ва нематодалар билан курашни йўлга қўйиш ғўза ниҳоллари бақувват ва бегона ўтлар билан рақобат қилиш қобилияти баланд бўлишини таминлайди.

Агротехника чоралари қаторига юза ҳайдаб, тупроқни юмшатиш, чуқур 2 ярусли кузги шудгор, баҳорда экишдан олдин ҳайдаш киради. Юза ҳайдаш кузги шудгордан олдин ўтказилади ва бунда бегона ўтлар ўлдирилади, тупроқда қолган уруғлари тезда униб чиқади.

Кузги шудгор бегона ўтлар ўсиб чиққандан сўнг ўтказилиб, бунда ўтлар ўлади, илдизпоялари тупроқнинг устига чиқарилади ва улар қишда музлаб ҳалок бўлади.

Баҳорда экишдан олдин ер ҳайдаш ва икки томонлама мола (борона) юргизиш янги униб чиққан ўтлардан халос қилади ва тупроқ устидаги илдизпояларни даладан чиқариб ташлашни таминлайди.

Ерни культивация қилиш муҳим тадбир ҳисобланади. Бунинг учун дала равон текисланган бўлиши зарур. Шу мақсадда АҚШда қўлланиладиган энг замонавий усул – ерни лазер нуридан фойдаланиб текислашдир. Бундай далаларда культиваторга ўрнатиладиган ҳар хил мосламалар ёрдамида чигит экишдан олдин ёки ниҳоллар униб чиққандан сўнг бегона ўтларнинг кўп турлари деярли бутунлай йўқотилади.

Пахта ҳосилига кучли салбий таъсир кўрсатувчи баъзи бегона ўтлар кенг тарқалган далаларда кулътивацсия яхши самара бермаслиги мумкин. Бундай ҳолларда бегона ўтларни кўл (чопиқ) ёрдамида йўқотиш лозим.

Кимёвий усул – гербицидларни қўллаш – бегона ўтлар билан курашишнинг нисбатан янги, замонавий ва баланд самарали йўли бўлиб, қишлоқ хўжалигида тупроққа механик таъсир қилишни иложи борича камайтиришга қаратилган.

Ўсимликларни курутувчи ёки ўсишини тўхтатувчи кимёвий моддалар

гербицидлар деб аталади.

Гербицид қўллашга мўжжаланган далаларни яхши текислаш жуда муҳим. Текис далаларга қўйилган сув ҳам бир текис тарқалади ва бу, ўз навбатида, гербицидларнинг самарадорлигини оширади ҳамда таъсир даврини узайтиради. Янги текисланмаган, айрим жойларида сув тўпланиб қолган далаларда кўп гербицидлар тез парчаланиб кетади ва уларнинг самараси камаяди.

Далани чигит экишдан олдин суғориш бегона ўтларнинг уруғлари унишини таминлайди ҳамда уларнинг майса ва ниҳоллари билан курашиш имкониятини яратади.

Гербицидлар классификацияси. Бегона ўтларга таъсир қилиш механизмига қараб гербицидлар 2 гуруҳга: ёппасига ва танлаб таъсир қилувчиларга бўлинади.

Ёппасига таъсир қилувчи гербицидлар барча ўсимликлар учун заҳарлидир. Танлаб таъсир қилувчи (селектив) гербицидлар баъзи ўсимликлар (бегона ўтлар) учун баланд заҳарли, бошқалари (маданий экинлар) учун эса зарарсиз ёки кам заҳарли. Айрим селектив гербицидлар ўсимликларнинг 1 гуруҳига (мисол учун 1 ёки 2 паллали ўсимликларга) ёки бир нечта турига (мисол учун 1 йиллик бошоқли ўтларга) ёхуд фақат 1 турига заҳарли бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Б.О. Хасанов, А.Ш. Ҳамраев, О.Т. Эшматов ва бошқалар. Ғўзани зараркунанда, касалликлар ва бегона ўтлардан ҳимоя қилиш. Тошкент-2002.

2. Э.А. Холмуродов, М.А. Зупаров, Р.К. Саттарова ва бошқалар. Қишлоқ Хўжалик Фитопатологияси. Тошкент-2013.

3. Б.А. Сулаймонов, Б.С. Болтабоев, А.Р. Анорбоев. Боғ, токзор ва дала экинларининг зараркунанда, касалликлари ҳамда уларга қарши кураш усуллари. Тошкент - 2017 й.

НЕМИС ҲӘМ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛЛЕРИНДЕ КЕЛБЕТЛИКЛЕРДИҢ МОРФОЛОГИЯЛЫҚ ҲӘМ СЕМАНТИКАЛЫҚ ӨЗГЕШЕЛИКЛЕРИ

А.Джумамуратов
Бердах атындағы ҚМУ
Н.Табысханов
Бердах атындағы ҚМУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.7324404

Annotaciya: Bul maqalada qaraqalpaq hám nemis tillerindegi kelbetlikler salıstırılǵan bolıp, olardıń bir biri menen uqsaslıǵı hám ózgeshelikleri haqqında maǵlıwmatlar berilgen. Kelbetliklerdiń morfologiyalıq qurılısı hám sintaksislik xizmet atqarıwı eki tilde salıstırılıp izertlendi hám bir neshe mısallar járdeminde túsindirilip berildi. Kelbetliklerdıń qosımtalar járdeminde beriliwi, sózlerdiń qosılı arqalı payda bolıwın eki tilde analiz qılınǵan.

Tayanısh sózler: Kelbetlik, bayanlawısh, atlıqlasıw, kelbetliktiń dárejeleri, jay dáreje, arttirma dáreje, sepleniw.

Шет тиллерин үйрениўдиң әҳмийетиниң өсиўине байланыслы оларды тереңирек изертлеў ҳәм үйрениў зәрүрлиги келип шықты. Шет тиллериниң грамматикалсына бейимлестириўде яғный немис тилин миллий мектеп оқыўшыларына үйретиўде бираз қыйыншылықлар туўдырады. Бул оқыўшылыр өз ана тилиндеги грамматикалық қубылысларға қарағанда, пүткиллей басқаша грамматикалық қубылысларға дусласыўы менен түсиндириледи, буннан басқа ҳәзирги дәўирде ҳәр қыйлы системадағы тиллерди салыстырмалы типологиялық жақтан үйрениў (изертлеў) машқалаларына кең қызығыўшылық пайда болып атыр.

Келбетлик немис тилинде (das Adjektiv) латынша adiectivum сөзинен келип шыққан. Келбетликлердиң семантикалық мәниси еки тилде де дерлик бирдей, яғный олар заттың (нәрсе-предметтиң) сынын, сыпатын, қәсийетин, көлемин, салмағын, адамлардың түр-түсин, минез қулқын аңлатады [1,45].

Келбетликлер өзлериниң жүдә жийи-жийи қолланылыўы менен басқа сөз шақапларына салыстырғанда айрықша стильлик бояўлары, қәсийетлери, сеплениўлери (бул немис тилине тән), өзине тән дәреже көрсеткишлерине ийе.

Морфологиялық қурылысы жағынан келбетликлер еки тилде де үш топарға: жай ҳәм қоспа келбетликлер тиллердиң екеўине де тән, ал үшинши түри немис тилинде дөренди, қарақалпақ тилинде жуп келбетликлер деп бөлинеди.

Немис тилинде жай келбетликлер тек түбир сөзден ибарат болып, ҳеш

қандай аффикслерсиз жасалады, предметтиң түр-түсин (schön, rot), дәмин (süß), көлемин (groß, klein) билдиреди [5,69].

Ал қарақалпақ тилинде болса жай келбетликлер тийкар ҳәм дөренди келбетликлер деп бөлинеди. (үлкен. сулыў, жазба, сезгир). Демек, қарақалпақ тилиндеги жай келбетликлердиң қурамында келиўши дөренди келбетлик немис тилиндеги дөренди келбетликке туўра келеди [3, 87].

Усыларды есапқа алып айтыўға болады, келбетликлер морфологиялық қурылысы жағынан немис тилинде үшке, қарақалпақ тилинде төртке бөлинеди, соңғы артықмаш түри жуп келбетликлерди қурайды. Еки тилдеги келбетликлер арасындағы бундай парықланыў тиллердиң ҳәр қайсысына тән өзгешелигинен келип шығады. Өйткени бул тиллердиң келип шығыўы, грамматикалық қурылысы тәрепинен басқа-басқа болып биринши флектив тиллер топарына тийисли болса, екиншиси англютитив тиллерге тән.

Келбетликлердиң аңлататуғын мәниси ҳәм грамматикалық өзгешеликлерине қарай еки топарға сапалық (qualitative) ҳәм қатнаслық (relative) деп бөлиниўи еки тилге де тән болған грамматикалық қубылыс.

Келбетликлердиң биринши топары еки тилде де предметтиң белгисин, сынын, сыпатын, түрин, түсин, көлемин, сапасын ҳәм. т. б.аңлатып келеди. Бирақ, қарақалпақ тилиндеги сапалық келбетликлердиң өзине тән өзгешелиги олар –ғыш, -гиш, -шыл, -шил, -ғылт, -гилт, -ғылтым, -гилтим сыяқлы пәсейтиў дәреже қосымталары менен де қолланылады: көкшил, қызғылт ҳәм. т. б. Бундай жағдайда келбетлик өзи байланысып келген заттың еле толық сапаға ийе емеслигин көрсетеди [2, 66].

Қатнаслық келбетликлер басқа сөз шақапларынан жасалып көплеген мәнилерди аңлатып келеди: golden, täglich, lustig; суўсыз, қонақшыл, тергиш ҳәм. т. б.

Аффиксация усылы менен келбетликлердиң жасалыўы еки тилде де ең өнимли усыл болып табылады.

Ҳәзирги немис тилинде - ig, -lich, -isch, -bar, -haft,- sam, -en, -ern, -er, -los сыяқлы суффикслер, un-, ur-, miß-, erz- сыяқлы префикслери арқалы дөренди келбетликлер жасалса, қарақалпақ тилинде –лы, -ли, -ғыр, -гир, -қыр, -кир, -ғыш, -гиш, -аған, -еген, -шақ, -шек суффикслери, сондай-ақ бий-, на-, (нә-), ба-, -бә префикслери арқалы жасалады [4, 91]. Қарақалпақ тилиндеги келбетлик жасайтуғын жоқарыдағы префикслер тилимизге басқа тиллерден (тәжик, парсы) кирип келген.

Салыстырылып атырған тиллердиң екиншисинде еки келбетлик қатар келип, сондай-ақ тийкар ҳәм дөренди келбетликлердиң тәкирарланыўы арқалы жасалыўы қарақалпақ тилине тән болған қубылыс болып табылады: ақ қуба, шады-қуррам, жақсы-жаман ҳәм. т. б.

Келбетликлердиң жасалыўындағы уқсаслықлар еки тилде де суффикс арқалы жасалыўының өнимли, префикс арқалы жасалыўы болса өнимсиз сийрек гезлесетуғын жағдай.

Олардағы айырмашылық қарақалпақ тилинде сөзлердиң қатарласып ямаса қайталанып келиўи арқалы келбетликлердиң жасалыўы болып табылады. Бундай жағдай немис тилинде де сийрек болса да гезлеседи: lange, lange Reihe, süße – süße Brei u. a.

Немис ҳәм қарақалпақ тиллеринде келбетлик арасындағы өзгешеликлерден бири немис тилинде келбетликлердиң өзи байланысып келген атлық сөзге қатнаслы сепликте, санда, родта өзгериўи болып табылады.

Немис тилинде келбетликлер ҳәмме ўақыт бирдей сеплене бермейди. Олардың сеплениўи өзи биригип келген сөз қурамына байланыслы.Усыған қарай күшли сеплениў (die starke Deklination), күшсиз сеплениў (die schwache Deklination) ҳәм аралас сеплениў (die gemischte Deklination) сеплениў деп үшке бөлинеди.

Қарақалпақ тилинде, улыўма барлық түркий тиллерде атлықтың алдында келген келбетлик ҳеш қандай өзгериске ушырамайды, тек ғана атлық сеплик, көплик категориялары бойынша өзгериўи мүмкин: бийик жай, бийик жайлар, узын көшеден… .

Немис ҳәм қарақалпақ тиллери арасындағы бундай айырмашылықлар немис тилин үйрениўши оқыўшылар ушын қыйыншылық туўдыратуғынлығы өз-өзинен мәлим. Ана тилиниң тәсирине берилген оқыўшы атлық алдындағы келбетликти өзгертпестен қолланып типик қәтелерге жол қояды.

Соның менен бир қатарда немис тилинде сепленбейтуғын келбетликлер де бар. Оларға қала атларынан –er суффикси арқалы, санлықтан дөреген, сондай-ақ басқа тиллерден немис тилине кирип келген rosa, lila, prima, crème, oliv, bleu, chamois сыяқлы келбетликлер киреди [4,97].

Келбетликлердиң сепленбестен қысқа формасында қолланылыўы фразеологиялық бирикпелерде, поэзия тараўында да гезлеседи:

Auf gut Glück, ein halb Dutzend. Eim gut Gewissen ist ein sanftes Ruhekissen (Sprw)

Немис тилине тән болған тағы бир тил қубылысларынан бири айырым келбетликлердиң сепликлерди предлоглы ҳәм предлогсыз түрде басқарып келиўи. Мысалға: würdig, wert (Genitiv), ähnlich, gleich (Dativ), alt, breit, hoch (Akkusativ), reich, arm an + Dativ, zufrieden, mit + Dativ, müde, satt, voll von + Dativ ҳәм. т. б.[4,99].

Салыстырылып атырған тиллердиң екеўинде де келбетликлер дәреже категориясына ийе.

Немис тилинде: Positiv, Komparativ, Superlativ (жай, салыстырыў,

арттырыў) атмаларындағы үш дәреже болып, олар арқалы предметтиң белгиси, сапасының жай түри, артық я кемислиги, сондай- ақ салыстырма белгиси көрсетиледи.

Қарақалпақ тилинде де тап усы айтылған үш дәрежеге қосымша төртинши дәреже бар. Ол келбетликлердиң пәсейтиў дәрежеси деп жүритиледи. Өзи атынан көринип турғанындай ол белги еле жай дәрежеге жетпегенлигин көрсетеди.

Немис тилинде, сондай-ақ қарақалпақ тилинде келбетлик дәрежелерин жасайтуғын белгили грамматикалық қубылыслыр бар.

Positiv: schön, schlau u. a. schlau wie Fuchs, süβ wie Hönig u. a. палдай мазалы… .Komparativ: stamm + er schlecht – schlechter, froβ – gröβer ҳәм қарақалпақ тилинде. қарағанда, гөре ҳәм де –рақ, -рек, -ырақ, -ирек ҳәм т. б.

Superlativ: positive + (e)st, positive + (e)sten ҳәм қарақалпақ тилинде бул еки морфологиялық (сап-сары) ҳәм синтаксислик (жүдә жақсы) усыл менен жасалады [4, 101].

Қарақалпақ тилиндеги пәсейтиў дәрежеси –лаў, -леў, -ғыш, гиш, -ғылт, -гилдир сяқлы қосымталар арқалы жасалады. пәслеў, ақлаў, қызғыш, ақшыл көгилдир ҳәм. т. б.

Немис тилиниң тағы бир өзини тән өзгешилиги айрым келбетликлерден Komparativ ҳәм Superlativ дәрежелери жасалғанда сөзлердиң түбирин өзгертеди. Бундай жағдайды supplektive Form der Bildung der Steigerungsstufen der Adjektive деп жүритиледи.

gut – besser – der beste, am besten

Салыстырылып атырған тиллердиң екеўине де тән қубылыс келбетликлердиң субстантивлесиўи. Бул дегени олар атлыққа айланып атлыққа тийисли болған предметлик хызметти атқарады.

Субстантивлескен келбетликлер еки тилде де атлықларатлықлар сыяқлы бар лық грамматикалық категорияларға ийе болады, яғный сан, сеплик, сондай-ақ немис тилинде род категориясы.

Использование презентаций позволяет разнообразить виды словарной работы, наглядно продемонстрировать деление на группы слов по различным признакам. В содержание уроков литературного чтения можно включить аудио средства, предлагая записи образцового чтения небольших по объёму литературных произведений. Это обучает выразительному чтению, умению прочувствовать настроение, определить характер героев. Чтение стихов под удачно подобранную фонограмму вызывает в душах маленьких слушателей бурю эмоций, желание самим попробовать вызвать такие же чувства и у других. Повышают творческий и интеллектуальный потенциал учащихся, расширяют и закрепляют полученные знания уроки -викторины по сказкам, Особенно яркими и результативными с позиции информационных технологий получаются уроки окружающего мира, изобразительного искусства. Основа урока - это изложение нового материала, иллюстрируемое рисунками, простыми и анимированными схемами, анимационными и видео фильмами.

Использование ИКТ на уроках труда упрощает инструктаж, появляется возможность продемонстрировать порядок выполнения работы, с помощью штриховки, стрелок можно обозначить необходимые линии, а затем вывести готовый результат. Причём ИКТ даёт возможность с помощью повторов отработать сложные этапы работы. У младших школьников небогатая жизненная практика и поэтому для них многие образы окружающего мира, изучаемые по программе, незнакомы. А при помощи ИКТ мы имеем возможность подобрать богатый иллюстративный материал в качестве дополнения к учебнику. Я считаю, если учителя в своей работе используют ИКТ, значит, им небезразличен уровень своей профессиональной компетентности, их беспокоит, насколько он, как педагог соответствует требованиям данного времени. Также применение новых информационных технологий в традиционном начальном образовании позволяет дифференцировать процесс обучения младших школьников с учетом их индивидуальных особенностей, дает возможность творчески работающему учителю расширить спектр способов предъявления учебной информации, позволяет осуществлять гибкое управление учебным процессом, что является социально значимым и актуальным в наше время.

Таким образом, применение педагогических технологий в начальной школе способствует развитию у школьников познавательной активности, творчества, креативности, умения работать с информацией, повышению самооценки, а главное, повышается динамика качества обучения.

Список литературы:

1. Makhmudova, D. M., Tadjibaev, B. R., Kholboevna, G., Yuldasheva, G. T. (2020). Information and communication technologies for developing creative competence in the process of open teaching physics and maths. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(09).

2. Юлдашева, Г. Т. (2021). Методологические основы использования медиа технологий в повышении эффективности обучения. Экономика и социум, 5-2, 1129-1133.

3. Юлдашева, Г. Т. (2021). Тенденции развития навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества. Экономика и социум, 5-2, 1134-1141.

4. Tileuovna, G. Y. (2020). Organization of creative activity of students based on innovative technologies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (5), 140-144.

CHUST MADANIYATI

B Abdullayev
t.f.n., katta ilmiy xodimi
Tursunaliyev Sanjarbek Narimonjon o`g`li
Farg‘ona davlat universiteti.
Arxeologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7324320

Annotatsiya: Maqola so`ngi bronza va ilk temir davrida Farg‘ona vodiysida vujudga kelgan ilk dehqonchilik madaniyati hisoblangan Chust madaniyati haqida. bunda aholining kelib chiqishi, asosiy mashg‘ulotlari, kulolchiligi haqida ma’lumotlar tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar**: Ilk temir davri, Chust madaniyati, Dalvarzintepa, xo`jalik turlari, sopol idishlar, shaharlar.

Chust Farg`ona vodiysini o`troq aholisini shimollik chorvadorlar bilan bog`lagan qadimgi yodgorlik hisoblanadi. Buvanamozor yaqinida ilk arxealogik tadqiqotlar olib borgan akademiklar Y.G. G`ulomov, A.A. Asqarov ва M. Varonets, V. Sprishevskiy, Y.A. Zadneprovskiy, B.X. Matboboyev, U. Rahmonov va boshqalarni aytib o`tishimiz mumkin. Yevroosiyo xududlarida ilk metalni ixtiro qilinishi kishilik jamiyatida juda katta ijtimoiy va iqtisodiy o’zgarishlarga olib keldi. Ish qurollarini yasalish mehnat unumdorligini oshirdi, xarbiy qurollarni yasalishi ovchilikni unumdorligini ustirdi. Xuddi shu davr ot aravani ixtiro qilinishi bilan xarakterlanadi va bu insonlarni bir yerdan ikkinchi yerlarga kuchib borishiga imkon yaratdi. Farg’ona vodiysida bronza davri yodgorliklaridan biri bu arxeologiya fanida shu yodgorlik nomi bilan “Chust madaniyati” deb nom olgan. Chust madaniyati o’tgan asrning 50 - yillarida leningradlik arxeolog olim Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan ilk marta fan olamiga kiritildi (Заднепровский.1962, 1978, 1998; Кошоленко, 1985).Olim tomonidan Chust madaniyati haqida izlanishlar olib borib undan so‘ng B Matboboyev tomonidan davom ettirildi. Farg`ona vodiysida bronza davri o`ziga xos tarixiy taraqqiyyotga ega bo‘lib, unda arxaik elementlar uzoq davr mobaynida saqlanib qolgan.Chust madaniyati aholisi otroq dehqonchilik bilan shug`ullangan bo`lib, ularning dastlabki aholisi Qoradaryoning qadim deltasida joylashgan va bu an`ana boshqa yodgorliklarda ham qo`llaniladi (Заднепровский. 1962, с, 11). Chust madaniyati nomi bilan ma’lum va mashhur bo`lgan dehqonchilik madaniyatini goho bronza, ba’zida esa ilk temir davriga oid deb talqin qilib kelindi. Bronza davri buyumlarini spektral analiz qilish yo`li bilan Chust madaniyati mil. avv. XVI-XV asrlardan VII asrgacha davom etganligi aniqlanmoqda (Анорбоев,

Исломов, Матбобоев. 2001 5,6.б). Ta’kidlash joizki, qadimgi shaharlar mavjud dehqonchilik vohalarining diniy-madaniy, iqtisodiy va hunarmandchilik markazlari sifatida paydo bo‘lgan (Matbabaev, 2004. 28 b.). Qo’lga kiritilgan topilmalarni o’rganish bizning “Dalvarzin shahri uning barcha faol davrlarida muntazam kengayib va ta’mirlanib turgani” haqidagi farazlarimizni tasdiqladi (Abdullaev, 2005; 2007). Shaharning doimiy rivojlanishi, albatta, hunarmandchilik bilan bevosita bog`liq hisoblanadi. M.X. Isomiddinov qadmgi Sug’d madaniyati yodgorliklarini o’rganar ekan Chust madaniyati davri sopol idishlarning ishlab chiqarish usullariga e`tibor berib unda Zarafshon vohasi bronza davri yodgorligi sopoli bilan solishtirib ularning deyarli farqi yo`q ekanligini ularni orasidagi davriy sanasini aniqlashda asosiy e’tiborni sopol idishlarining tipologik jixatlariga qaratadi. Olimning kuzatishlariga qaraganda Chust va Sug’dning ilk temir davri yodgorliklaridan olingan sopol idishlari oraida katta farq na faqat ularning naqlarida, balkim yasalish usuli va pishirish texnologiyasida ham kuzatiladi. Shu va shunga o’xshat o’ziga xos xususiyatlariga asoslanib M.X. Isomiddinov Chust madaniyatini Zarafshon voxasining Sarazm madaniyati bilan tengdosh bo’lishi kerak, deb xisoblayd. Bunga yana bir dalil sifatida shuni ham aytish kerakkim oxirgi 15-20 yillar davomida Markaziy Osiyoning qator ilk temir davri yodgorliklaridan yangi radiokarbon taxlillari natijasida yodgorliklarning davriy sanasi mil. avv. 14-16 asrlarga qadar qadimlashtirildi. Shundan xulosa qilib Chust madaniyatining yuqori davri ancha qadimgi davrni qabul qilgan olimlarning fikrlariga qushilsak bo’ladi. Yana professor Isomiddinov domla tomonidan Dalvarzin va Chust sopollarida qora rangdan foydalanilgan va tagiga qizil fon berilganligini aytadi. Arxealogiyada sopol buyumlar madaniyatdagi katta birlikni, umumiylikni aniqlash uchun eng yaxshi omildir. Bu ommaviy tus olgan material bo`lib, uning ko`p topilishi arxeologiya nuqtai nazaridan turkumlarga bo`lish uchun ishonchli asos bo`lib xizmat qiladi. Shunga qo`shimcha qilib aytishimiz mumkinki, kulolchilik qadimgi madaniyatlarning ajralmas bir bo`lagi hisoblanadi. Zadneprovskiyning yozishicha Dalvarzindagi besh yillik ish davomida 100 000 dan ortiq kulolchilik parchalari topildi (Заднепровский. 1962, 24-25). Sanab o‘tilgan kulolchilik turlari barcha gorizontlarda uchraydi. Kulolchilikning turli gorizontlardagi farqlari deyarli sezilmaydi va bu Moino kulollarining umumiy tavsifidir. Y. A. Zadneprovskiy tomonidan o`rganishlar natijasida Dalvarzindan topilgan sopol idishlar bir necha turga bo`linib tavsiflanadi.

I tur - Bu turdagi kulolchilik guruch aralashmasi bilan yomon aralashgan massadan tayyorlanadi, idishlarning o‘ti yetarli darajada kuchli emas, shuning uchun sinishda parcha bir xil bo‘lmagan rangda bo‘ladi. Ularning yuzasida turli rangdagi dog'lar bor - och jigarrangdan qora ranggacha. Bu xususiyat Chust kulolchiligiga xos xususiyatdir. Dalvarzin kulolchiligida ularning profillanishiga ko‘ra uch guruh idishlar aniq ko‘rinadi: qo‘ng'iroq shaklida to‘g'ri devorli konus shaklidagi idishlar.

II tur - sopol. Loyning tarkibi va ishlab chiqarish usuliga koʻra, u I turdagi sopollardan deyarli farq qilmaydi.

III tur - oq astarli keramika. Dastlab u I turdagi turli xil idishlar sifatida qaraldi. Materiallarning toʻplanishi ayniqsa ajralib turadi.U asosan qoplamaning rangi bilan farqlanadi. Koʻzalar, devori tekis boʻlgan yassi tubli qozonlar, kosalar va bu turdagi idishlarning boshqa shakllari maʼlum.

IV tur - kulrang va sarg'ish rangdagi tekis boʻlmagan tekis yuzasiga ega boʻlmagan keramika.Taxmin qilish mumkinki, bunday sopollar maxsus maqsadga ega edi. Biroq bu turdagi topilmalar koʻp emas va ularni yetarli darajada toʻliqlik bilan tavsiflab boʻlmaydi.

V turi - qora-kulrang jilolangan sopollar.Bu butun sopollar kompleksinini qiyosiy oʻrganish uchun alohida qiziqish uyg'otadi. U faqat Chust madaniyatining Chimboy manzilgohida ma'lum. Bu kulolchilik butun majmua ichida loyning tarkibi, rangi va sirtiga ishlov berish xususiyatiga koʻra keskin ajralib turadi.

VI turi - kulrang loy (oshxona) sopoli. U lenta usulida, shuningdek mato shablonida, ohaktosh aralashmasi bilan loydan qilingan. Uquyidagi shakldagi idishlar bilan tavsiflanadi: qirrasi egilgan katta sharsimon qozonlar koʻzalar, kostryulkalar va mangallar. Qishloqda mangallar tez-tez uchraydi. Ular ikkita tur bilan ifodalanadi: yumaloq va toʻrtburchaklar (oʻlchami 38x32 sm).

VII turi - xamirga chamot qoʻshilgan qalin devorli sopollar hisoblanadi (korchagi va xum). Sopollar shakli va nima uchun mo`ljallangani bilan ajralib turadi. Bu tur sopollar oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun moʻljallangan edi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Dalvarzin sopollarida tutqichlar va naylar juda kam uchraydi. Bizda qizil astarli, kichik belgilar bilan jihozlangan idishlarning bir nechta boʻlaklari bor. Sopollar majmuasida qoplamalar muhim oʻrin tutadi. Ular, qoida tariqasida, disk shaklida, qirrali (diametri 40 sm) yumaloq shaklga ega. Ulardan ba'zilarining markazida baland tayoqchalar shaklida tutqichlari bor (XIII табл. 8). Chust madaniyatiga mansub guldor sopol buyumlar topilgan. Sopol idishlar uy xujaligida ishlatilgan qozon, xumcha, tuvak, ko`za va tovoqlardan iborat. Ular asosan qo`lda ishlangan va rangli geometrik chiziqlar bilan naqshlangan (Заднепровский.1962. 25-29 бб.). Shuningdek olim tomonidan Chust sopollari haqida qo`lda yasalib ustidan naqsh berilgan deya tavsif ham beriladi. Demak, Zadneprovskiyning fikrlariga asoslanib Chust madaniyati aholisi kulolchilik charxidan foydalanmagan degan fikrga kelishimiz mumkin. Lekin bu oxirgi xulosa emas. Chust madaniyati arxeologik qazishmalarida Zadneprovskiy va uning shogirdlari 30 yil davomida izlanishlar olib bordilar (Исамиддинов. 2002. 58 бб.). Bundan biz bilishimiz mumkinki Chust madaniti aholisi hunarmandchilik bilan ayniqsa kulolchilik bilan yuksak darajada shug`ullanganligini bilishimiz mumkin. Chust madaniyatigan mansub bo`lgan qozonlar yupqa qilib ishlanib ovqatni tez

pishirishga mo`ljallanganligini olimlar tomonidan ayti o`tilgan.Keyingi davrlarda Chust madaniyatiga tegishli buyumlar boshqa hududlardan ham topib o`rganilganligini manbalardan ko`rishimiz mumkin. Yoz I, Kuchuk I va Chust tipidagi rangli sopol idishlar O`rta Osiyoning ko`p joylarida uchraydi. Ular Janubiy Turkmanistondagi Kopetdog` atrofida joylashgan Anovtepa, Elkantepa, Ulug`tepa, Shimoliy Afg`onistondagi Tillatepa, Surxondaryodagi Jarqo`ton va Bandixontepa I, O`rta Amudaryo qismidagi Odoytepa yodgorliklarida topilgan. (Ж. Кабиров, А. Сагдуллаев. 1990, 144-145). Yana shuningdek Chust madaniyatiga oid sopol buyumlar Samarqand hududida joylashgan Afrosiyob yodgorligining quyi qatlamidan,janubiy Sog`diyonaning bosh shahri bo`lgan Yerqorg`on shahri xarobasining pastki qatlamidan, Shahrisabz hududdida joylashgan ilk o`rta asrlarga oid bo`lgan To`rtko`ltepa yodgorligining quyi qatlamidan va qadimgi Baqtirya hududidagi Kuchuktepa, Bo`yrachi, Qizilcha, Maydatepa kabi yodgorliklardan topilgan. Lekin, Chust madaniyati qadimgi Baqtiryada keng rivojlana olmadi (Rahmonov E., Nuriddinov T., Davronov B. 2017. 110-111 bb). Chust madaniyati yodgorliklaridan topilgan moddiy madaniyat buyumlar asosida Farg`ona vodiysi tarixining so`nggi bronza davr dehkonchiligi, chorvachiligi va hunarmandchiligining o‘ziga xos qirralari ochib berilib, Chust davri mudofaa inshootlarining O`rta Osiyo fortifikaniyasidagi roli va o`rni aniqlandi (Хакимов А.А. 2009. 54,55 бб). Manbalarda keltirilishicha, so`ngi bronza davrida qabilalarning ko`chish jarayonlari bo`lib o`tdi. Bu jarayonlardan Farg`ona vodiysi ham chetda qolmadi.Chust madaniyati sopollari Markaziy Eron, Markaziy Hindiston sopol idishlariga ham o`xshab ketishi aytiladi.Bu,albatta, o`sha davrdagi madaniyatlar almashinuvidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Исамидцинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). Издательство народного наследия имени А.Кадыри. Ташкент-2002. 58).

2.Заднепровский. Древнеземледельческая культура Ферганы. М-Л., 1962.

3. Анорбоев А., Исломов У.И., Матбобоев Б.Х. 2001.5-6 б.

4. Матбабаев. Б. Х., 2004. С. 28

5. Заднепровский.1962,С.24-25

6. Абдуллаев.Б. 2005. С. 132.

7. Кабиров Ж. Сагдуллаев А.С. 1990, 144,145 б.

8. Rahmonov Э, Nuriddinov T. Davronov. Arxealogiya o`quv uslubiy qo`llanma Toshkent-2017. 110,111 b.

9. Хакимов А.А. Фаргона водийси илк шахарсозлик маданийатига оид

археологик кашфийотлар тарихи. Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда мавзуидаги Республика илмий анжуман материаллари Фарғона – 2009. 54,55 б.

10. Архиовский А.В. Археология асослари. Ўқитувчи нашриёти-1970. 75, 76 б.

11. Абдуллаев Б.М. Қадимги Фарғона урбанизациясининг айрим хусусиятлари // O’zbekiston arxeologiyasi. 2016. № 2 (13)

12. Internet (electron) malumotlari;

www google.uz.; www ziyo.uz.kutubxonasi.Анорбоев А., Исломов У.И., Матбобоев Б.Х. 2001.5-6 б. Aim.uz.

ЎЗБЕКИСТОН ЯРИМҚАТТИҚҚАНОТЛИ (HEMIPTERA: HETEROPTERA) ҲАШАРОТЛАРИНИНГ ТОҒ ВА ТОҒ ОЛДИ ЛАНДШАФТЛАРИ БЎЙИЧА ТАРҚАЛИШИ
РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПОЛУЗИМОСТОЙКИХ (HEMIPTERA: HETEROPTERA) НАСЕКОМЫХ УЗБЕКИСТАНА В ГОРНЫХ И ПРЕДГОРНЫХ ЛАНДШАФТАХ
DISTRIBUTION OF SEMI-HARDY (HEMIPTERA: HETEROPTERA) INSECTS OF UZBEKISTAN IN MOUNTAIN AND SUB-MOUNTAIN LANDSCAPES

Мирзаева Г.С[1]., Мусаев Д.М[1]., ХолматовБ.Р[1]., Нормуминова Ю.Б.
[1]ЎзР ФА Зоология институти
[2]Термиз Давлат Университети
https://doi.org/10.5281/zenodo.7327125

Аннотация: Ушбу мақола Ўзбекистонда яримқаттиққанотсимон ҳашаротларнинг тоғ ва тоғ олди ландшафтлар бўйича тарқалиши тадқиқотлар натижасида ўрганилган маълумотлар асосида яратилди.

Калит сўзлар: HETEROPTERA, қандала, ландшафт, авлод, тур, доминант, тоғ, фитофаг, зоофаг.

Ключевие слова: HETEROPTERA, кандала, ландшафт, поколение, вид, доминант, гора, растителъноядный, зоофаг.

Keywords: HETEROPTERA, kandala, landscape, generation , species, dominant, mountain, phtophagous, zoophagous.

КИРИШ

Яримқаттиққанотсимонлар ҳашаротлар синфининг катта қисмини ташкил этиб, ер шарининг барча ҳудудларида кенг тарқалган. Бугунги кунда дунё миқёсида қандалаларнинг 75 оилага мансуб 50 мингдан ортиқ тури тарқалган бўлса [1, 4, 8]., Марказий Осиё мамлакатлари, жумладан Қозоғистонда қандалаларнинг 32 оилага мансуб 1250 дан ортиқ тури рўйхатга олинган [11]. Қандалалар фаунаси Ўрта Осиёда, жумладан, Ўзбекистонда ҳам уларнинг хилма-хиллиги бой бўлиб, эндемик ва қизил китобга киритилган турлари билан ажралиб туради [5, 7, 9]. Ушбу вазият экологик муҳитнинг ранг-баранглиги билан чамбарчас боғлиқлигини кўрсатиши мумкин. Қорақум, Қизилқум чўллари ва бошқа текислик ландшафтлари, яшил воҳалар ва тоғ системалари, Помир-олой, Ҳиссор, Тянь-Шан билан узвий боғлиқлиги, қандалалар учун қулай шароитларни ташкил топишига олиб келганлигидан далолат беради.

ТАДҚИҚОТНИНГ УСУЛЛАРИ.

Тадқиқотлар А.Н.Кириченко (1951), И.М.Кержнер ва Н.Н.Муминов (1964), Р.Б.Асанова ва Б.В. Искаков (1977) ҳамда В.Б. Голуб ва бошқ. (2012) усуллари асосида ўтказилди. Қандалаларни йиғишда диаметри 34-40 см бўлган энтомологик тутқич (сачок) ва диаметри 1м^2 бўлган оқ мато (Beat sheet) ҳамда ёруғлик тутқичларидан фойдаланилди. Йиғилган материаллар 96 % ли спитрда пластмасса идишларда сақланди. Шунингдек МБС-109 бинокуляр, Мотик В 1-220А -1, SZM -161-TL, P122 DISSECING MICROSCOPE” микроскоплари ва Power Shot A 2500 Canon фотоапаратларидан фойдаланилди.

Мазкур тадқиқот ишимизда қандала турларининг тоғ ва тоғ олди ландшафтлар бўйича тарқалишини ўрганиш устида иш олиб бордик.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ

Мазкур тадқиқот ишимизда белгиланган вазифаларни бажариш мақсадида Ўзбекистоннинг тоғли Нурота (Жиззах вилояти), Хисор, Китоб (Қашқадарё вилояти), Сурхон (Сурхондарё вилояти) давлат қўриқхоналари, Угам-Чотқол давлат миллий табиат боғининг Оҳангарон қисми, Китоб геологик миллий табиат боғидан биоматериаллар йиғилди (1-расм).



А Б

1-расм: Тадқиқотлар олиб борилган худудлар. Китоб геологик миллий боғи (А), Сурхон давлат қўриқхонаси (Б).

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Ўзбекистоннинг тоғ ва тоғолди ҳудудларида яримқаттиққанотли ҳашаротларнинг 11 оила, 48 авлод га мансуб жами 74 тури учраши аниқланди. Булар Anthocoridae оиласи (2 тур) – *Anthocoris angularis, Orius ribauti*.

Nabidae оиласи (2 тур) - *Himacerus mirmicoides, Nabis brevis.*

Miridae оиласи (35 тур) - *Dicyphus orientalis, Deraeocoris punctulatus, Deraeocoris serenus, Deraeocoris rutilus, Deraeocoris ruber, Adelphocoris seticornis, Agnocoris rubicundus, Brachycoleus decolor, Capsus ater, Capsus cinctus, Lygus pratensis, Lygus rugulipennis, Lygus gemellatus, Lygus punctatus, Orthops basalis, Orthops campestris, Polymerus brevicornis, Polymerus unifasciotus,*

Polyments vulneratus, Stenotus binotatus, Notostira elongata, Stenodema calcarata, Stenodema virens, Trigonotylus ruficornis, Halticus pusillus, Halticus apterus, Myrmecophyes alboornatus, Orthotylus flavosparsus, Orthotylus turcmenorum, Orthotylus oshanini, Anonychiella brevicornis, Plagiognathus chrysantemi, Camptotylus bipunctatus, Campylomma annulicorne, Tuponia elegans.

Reduviidae оиласи (4 тур) - *Rhynocoris abramovii, Rhynocoris monticola, Vachiria deserta, Reduvius testaceus.*

Coreidae оиласи (4 тур) - *Centrocoris volxemi, Coreus marginatus, Enoplops heintzii, Bothrostethus annulipes.*

Rhopalidae оиласи (3 тур) - *Liorhyssus hyalinus, Maccevethus corsicus, Stictopleurus angustus.*

Geocoridae оиласи (1 тур) - *Geocoris arenarius.*


Lygaeidae оиласи (3 тур) - *Lygaeus equestris, Spilostethus rubriceps, Spilostethus pandurus.*

Rhyparochromidae оиласи (1 тур) - *Beosus quadripunctatus.*

Pentatomidae оиласи (16 тур) - *Aelia acuminata, Aelia furcula, Aelia melanota, Brachynema germari, Carpocoris fuscispinus, Carpocoris pudicus, Dolycoris baccarum, Dolycoris penicillatus, Brachynema germarii, Nezara viridula, Menaccarus deserticola, Eurydema ornata, Eurydem maracandica, Eurydema ventralis, Graphosoma consimile, Graphosoma lineatum.*

Scutelleridae оиласи (3 тур) - *Eurygaster integriceps, Odontotarsus angustatus, Odontotarsus impictus.*

Аниқланган қандала турларининг оилалар кесимида тақсимланишига кўра энг кўпи Miridae оиласига 35 тур (47,3%) ва Pentatomidae оиласига 16 тур (21,6) мансуб бўлса, энг кам турлар Geocoridae 1 тур (1,3%), Rhyparochromidae 1 тур (1,3%), Anthocoridae 2 тур (1,5%), Nabidae 2 тур (1,5%) оилалаларига мансуб эканлиги маълум бўлди (2- расм).



2-расм. Ўзбекистоннинг тоғ ва тоғолди ҳудудларида тарқалган қандала турларининг оилалар кесимида тақсимланиши.

Хулоса: Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Ўзбекистоннинг тоғ ва тоғолди ҳудудларида яримқаттиққанотли ҳашаротларнинг 11 оила, 48 авлод га мансуб жами 74 тури учраши аниқланди. Булар Anthocoridae оиласи (2 тур) – *Anthocoris angularis, Orius ribauti*.

Адабиётлар:

1. Асанова Р.Б., Искаков Б.В. Вредные и полезные полужесткокрылые Казахстана. - Алма – Аты, 1977. – 202 с.
2. Голуб В.Б. Цуриков М.Н, Прокин А.А. Коллекции насекомых: сбор, обработка и хранение материала. – Москва, 2012. – 339 с.
3. Есенбекова П.А. Полужесткокрылых (Heteroptera) Казакистана. – Алматы, 2013. – 349 с.
4. Кириченко А.Н. Настоящие полужесткокрылые Европейской части СССР. М. Л., Изд – во АН СССР, М., 1951. – 423 с.
5. Кириченко А.Н. Методы сбора полужесткокрылых и изучения местных фаун. – Москва, 1957. – 123 с.
6. Кириченко А.Н. Полужесткокрылых (Hemiptera: Heteroptera) Таджикистана. – Душанбе, 1964. – 259 с.
7. Асанова Р.Б. Полужесткокрылые (Heteroptera) Восточного Казахстана // Труды Инс – та зоологии АН Каз ССР, 1974. т.XXXV. Алма – Ата, 1974, – С. 63–70.
8. Асанова Р.Б. Полужесткокрылые (Heteroptera) Западного Казахстана. – Алма-Ата, 1975, – 55 с.
9. Кержнер И.М., Муминов Н.Н. О некоторых малоизвестных клопах-слепняках (Heteroptera, Miridae) из Средней Азии // Изв. Отд. биол. наук АН Тад ССР, 1964. № 2, – С. 18.
10. Кириченко А.Н. Методы сбора настоящих полужесткокрылых и изучение местной фауны, М. Л., Изд-во АН СССР, 1957. – С. 121.
11. Кириченко А.Н. Настояшие полужесткокрылые насекомые. – Баку,
12. 1938.–С. 215-236.

BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQ O‘STIRISH VA ULARNING PSIXOLOGIYASI

Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika – logopediya yo‘nalishi 1 kurs talabasi
Qurbonova Nazokatxon Iqboljon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Pedagogika – psixologiya fakulteti 1 kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7327135

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq o‘stirishda ayrim muammo va kamchiliklar chiroyli qilib yoritilgan. Oilada ota – onaning farzand tarbiyasi bilan birga bola bilan qanday gaplashish, unga ertaklar aytib berishi hamda tarbiyachilarni mohirona faoliyatiga oydinlik kiritib berilgan. Oilada va bog‘chada nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarga tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tevarak – atrof, jarayon, nutq, oila, nuqson, talaffuz, ong, aql, tarbiy.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunda maktabgacha ta’lim to‘g‘risida shunday deyiladi; «Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bogchasida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi». Bu o‘quv-metodik tadqiqotlarni yaratishda nafak;at bolalar borchasi, balki oila sharoitini xam xisobga olish zaruratini keltirib chiqaradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktabgacha ta’limning asosiy yunalishlari quyidagicha belgilanadi: «Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish xissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi».

Ushbu xujjatda maktabgacha ta’limni rivojlantirishning muxim vazifalari kuyidagilardan iborat deb ko‘rsatiladi:

- zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘ullanmalar va texnika vositalari, uyinchoqlar va o‘yinlar yaratish;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-ahloqiy jixatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun yuqoridan beriladigan ko‘rsatmalarni kutib o‘tirirmasdan, ichki imkoniyatlardan ham unumli foydalanish zarur deb xisoblaymiz.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutkdi rivojlantirish muammosini tadqiq eta borib, biz boshlangich sinf ta’limidagi izchillikni ham hisobga oldishga

majburmiz. «»

Umumiy o‘rta ta’limning hozirgi bosqichida boshlangich sinflar o‘quvchilarining umumta’lim tayyorligining mazmuni va darajasiga bo‘lgan talablar ancha ortdi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizom»da yozib kuyilganidek: «Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik kabilarni va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yunaltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi».

Buni esa bolalarning nutqini o‘stirmasdan turib amalga oshirib bulmaydi. Shu bois maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o‘rganishda nutqini rivojlantirishning samarador yo‘llari hamda vositalarini ishlab chiqishning tadqiqot muammosi sifatida belgiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik:

- tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutq, eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinrok, egallaydi);
- aniq talaffuz hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona va aniq talaffuz qilish);
- so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash;
- nutqning orfoepik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash (bu na’munaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami;
- nutq suratini rivojlantirish;
- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya’ni nutqning ongli ifodalanishi);
- nutqiy nafas olishni shakllantirish (bunda to‘g‘ri nafas olishni o‘rganadi);
- oilada yoki bog‘chada so‘zlarni ota – ona va tarbiyachilar chiroyli va to‘g‘ri gapirishlari lozim;
- o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish;

Kuzatishlarimiz asosida shunday hulosaga keldikki, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota – onalarning roli benihoya kattadir.

Bolalar nutqiustida ishlash jaryonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo‘lishlariga, tabiiy ohangda gapirishlariga, so‘zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, qo‘llari va yuz mimikalarini bamaylixotir holatda tutib turishlariga e’tibor berilishi kerak.

5 – 6 – 7 yoshli bolalarda lug‘at boyligi 2500-3500 tagacha so‘zlarni tushunishi va bilishi kerak, aks holda albatta mutahassis bilan maslahatlashish lozim bo‘ladi.

Bolalarni nutqi va aqlini rivojlantirishda hikoya, ertaklar juda foydali. Ularga ertak o‘qib berilganda fikrlash qobilyatini ham o‘stirgan bo‘lamiz. Ayniqsa buvijon

va bobojonlarimiz o‘zlarini yoshliklarini va yoshlikda o‘ynagan o‘yinlarini gapirib berganlarida bolada albatta qiziqish paydo bo‘ladi. Kecha aytib bergan ertakni qaytadan so‘raganingizda bolada xotirasi mutahkamlanadi, fikrlash qobilyati shakllanadi.

Bola psixologiyasi juda murakkab, ba’zi birlari injiq bo‘lsa, ba’zi birlari odamovi bo‘lishadi. Agar shunday holatlarga duch kelsangiz albatta ularga ko‘proq vaqt ajratining, ular bilan ko‘proq gaplashing, savollariga javob bering.

Bolalar aqlini rivojlantirish uchun shaklli va rangli o‘yinchoqlar juda muhim. Bolada rang ajratish va shakllarni farqlash qobiliyati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom.
2. Asqarxo‘jayeva M. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rganish. Bolalar bog‘chalari tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: 2010.
3. Z.Irohimova, M.G‘aybullayeva. bolalar bog‘chalari uchun dasturlar. Tevarak – atrof bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, badiiy adabiyot. Toshkent: 2015.
4. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi. Toshkent: 2018.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARNI SINF DARSARIDA FAOLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI AHAMIYATI

Astanaliyeva Manzuraxon Mamadaliyevna
307 - maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7344832

Annatatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarni sinf darsarida faoligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o’rni va buning foydali tomonlari tog'risida so’z borgan.

Kalit so’zlar: axborot texnoogiyalari, yosh avlod, boshang’ich ta’lim, komputer, telefon, zamonaviy usullar.

Hozirgi vaqtda axborot va axborot texnologiyalari sohasidan tashqarida mavjudlikni tasavvur qilish qiyin. Har xil turdagi axborotlarning tobora ko'payib borishi bizni uni qayta ishlashning yangi, ilg'or usullari va vositalarini joriy etishga majbur qilmoqda va zamonaviy hayot sharoitlari uni saqlash, uzatish va xavfsizligini ta'minlash yo'llariga tobora ko'proq talablarni kuchaytirmoqda. Ta'lim inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ayni paytda ushbu sohada yangi bilimlar manbai va ushbu bilimlarni qo'llash sohasi hisoblanadi. Hozirda axborot texnologiyalar sohasi eng tez rivojlanayotgan sohalar sirasiga kiradi. Bunday faktni hech birimizda isbotlash shart emas menimcha, sabab bundan 20-30 yil oldin insonlarni qo’lida telfon ko’rish biz uchun bir katta yangilikday tuyilardi chunki hammaning ham qo’lida hozirgi zamonaviy telfonga o’xshash telfonlar emas,balki knopkali telfonlar, ularni ham har doim ham ko’ravermasdik, kimnidir komputer ko’rishni aytmasak ham bo’ladi. Hozir bo’lsa xatto maktabga endi kirgan o’quvchini ham qo’lida telfon ko’rish hech kimni ajablantirmay qo’ydi. Hozirgi yosh avlod siz-u bizga qaraganda zamonaviy texnologiyalarni yaxshi tushunadi. Endi shunday zamonaviy texnologiyalar bilan tanish bo’lgan avlod maktabga qadam qo’yganda bizda bir necha savollar tug’ilishi tabiiy. Yangi avlod bolalariga axborotlarni faqat og’zaki berish orqali ularni darslarga qiziqtira olamizmi? Qanday dars o’tsak, o’quvchilarni darsda faoligini yanada oshirish mumkin? Keling bu savollarga javob berishdan oldin zamonaviy texnologiya nima degan savolga javob topib olamiz. Texnologiya so'zi (yunon tilidan. Texnika - logotip, o'qitish). Asosiy atamalarning izohli lug'ati muallifi A.M. Berlyant bu izohni beradi: "Axborot texnologiyalari - bu ob'ekt, jarayon yoki hodisaning (axborot mahsuloti) holati to'g'risida yangi sifatli ma'lumot olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari kombinatsiyasidan foydalanadigan jarayon." Xuddi shu tushuncha "Izohli lug'atda"

D.N. Ushakova quyidagicha izohlanadi: "Axborot texnologiyalari - bu kompyuterda ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha xodimlar tomonidan aniq belgilangan maqsadli harakatlar majmui." Yuqori toifali o'qituvchi TP Trutnevaning so'zlariga ko'ra Axborot texnologiyalari nafaqat zamonaviy o'quv jarayonining elementi, balki ertangi kun talabidir.

Bugungi kunda, ma'lumot jamiyat rivojining strategik manbaiga aylanganda, zamonaviy ta'lim uzluksiz jarayon ekanligi ayon bo'ladi. Shu sababli, hozirgi paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda, bu erda elektron vositalar axborot manbai sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasida aytilishicha: "Hozirgi bosqichda ta'lim siyosatining birinchi vazifasi ta'limning zamonaviy sifatiga, uning shaxs, jamiyat va davlatning tegishli va kelajakdagi ehtiyojlariga mos kelishiga erishishdir." Shu bilan birga, modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biri maktab ta'limining yangi zamonaviy sifatiga erishishdir. Ta'limni axborotlashtirish maktabning ikkita asosiy vazifasini hal qilishga yordam berishi kerak: barchaga ta'lim va hamma uchun yangi sifat. Darslarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (bundan buyon matnda AKT) foydalanish o'quvchilarni atrofdagi dunyoning axborot oqimlarini boshqarish, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o'zlashtirish va zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumot almashish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Darslarda AKTdan foydalanish sizga tushunarli-tasvirli o'qitish usulidan faol usulga o'tishga imkon beradi, bunda bola o'quv faoliyatining faol predmetiga aylanadi. Bu talabalar tomonidan bilimlarni ongli ravishda egallashga yordam beradi. Boshlang'ich maktabda AKTdan foydalanish sizga quyidagilarga imkon beradi:

O’quvchilarning bilim faolligini kuchaytirish;

Darslarni yuqori estetik darajada o'tkazish (musiqa, animatsiya);

Ko'p darajali vazifalarni ishlatib, o'quvchiga individual yondashish

Xulosa qilib aytganda darsarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yosh o’quvchilarni darsdan zerikib qolishini oldini oladi, darsni yanada tushunarli bo’ishini taminlaydi, chunki siz aytgan so’zlarni endi vidiolar orqali ko’rib tasavur qiladi. Darsda ko’proq o’quvchilar diqqatini torishga yordam beradi.

Foydaanilgan adabiyotlar:

1. Z. Nishonova, G.Alimova ”Bolalar pisixologiyasi” Toshkent 2006-yil
2. H.B.Haydarova, Yosh avlod tarbiyasida oila ma`naviyatining o`rni
3. G’. Shoumarov ”Oila pisixologiyasi” Toshkent 2010-yil

O’YIN- MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHISI YOSHIDA YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA

Chorshanbiyeva Sabohat
Qashqadaryo viloyati, G’uzor tumani 13-DMTT tarbiyachisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7344838

Annotatsiya: Maqolada o’yin- maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi yoshida yetakchi faoliyat sifatida yoritib berilgan. Shu bilan birga tarbiyalanuvchilar bilan mashg’ulot jarayonida qo’llaniladigan o’yinlardan namunalar keltirilgan.

Tayanch so’zlar: O’yin, rolli o’yinlar, o’yin faoliyati, syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar, drammalashtirilgan o‘yinlar, qurilish o‘yini.

Rolli o’yin – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o’yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhum faoliyati bo’lib, ular bunday o’yinda go’yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Shu boisdan o’yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslar aro munosabatlarini umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, xis-tuygusi, o’zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o’ziga va o’zgalarga, atrof-muhitga munosabatlarini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o’yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o’tovchi narsalardan ham foydalanadilar.

Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o’yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, mohiyati va mazmuni jixatidan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Rolli o’yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri - bolada o’z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o’xshatish tuygusining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo’ladi va kattalaruning xulq-atvori, yurish-turishining ham ob'yekti, ham sub'yekti hisodlanadi.

O‘yinlar mazmuniga, xarakterli xususiyatlariga, bolalarning hayotida, ularga ta’lim va tarbiya berishda qanday o‘rin egallashiga qarab farq qilinadi.

Syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarni bolalarning o‘zlari tarbiyachining bir oz rahbarligida yaratadilar. Ularning asosi bolalarning mustaqilligidir. Ba’zan bunday o‘yinlarni ijodiy syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar deb ataydilar. Bunda bolalarning u yoki bu hodisaga taqlid qilib qolishi emas, balki ularni ijodiy ravishda anglab olishi va o‘zlari yaratayotgan obrazlarda,

o‘yin harakatlarida qayta tiklashlari qayd qilinadi. Dramalashtirilgan o‘yinlar va qurilish o‘yinlari syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarning muayyan bir xilidir.

Tarbiya amaliyotida kattalar tomonidan bolalar uchun yaratiladigan qoidali o‘yinlardan ham foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, ermak-o‘yinlar qoidali o‘yinlar jumlasiga kiradi. Ularning asosida aniq dastur mazmuni, didaktik vazifalar, o‘qitishning biror maqsadga qaratilganligi yotadi. Bunda bolalarning mustaqilligi mustasno qilinmaydi, lekin u ko‘p darajada tarbiyachining rahbarligi bilan qo‘shib olib boriladi. O‘yin tajribalarni egallashda, o‘z-o‘zini uyushtirish qobiliyatini rivojlantirishda bolalar bu o‘yinlarni ham mustaqil o‘tkazadilar.

Syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar- maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘ta xos o‘yinlar bo‘lib, ular hayotida muhim o‘rin egallaydi.

Syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarning xususiyati shundan iboratki, uni bolalarning o‘zlari yaratadilar, ularning o‘yin faoliyati esa aniq ifodalangan mustaqil va ijodiy xarakterda bo‘ladi. Bu o‘yinlar qisqa vaqtli va uzoq davom etadigan bo‘lishi mumkin.

Bolalarning o‘yinlarida kishilar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar namoyon bo‘ladi. Syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarda optimistik, hayotbaxsh xarakter aniq ko‘rinib turadi, ulardagi eng qiyin ishlar doimo muvaffaqiyat bilan tugaydi: masalan, shifokor kasallarni davolaydi, chegarachilar chegara buzuvchilarni ushlab oladi kabi.

Ijodiy syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarda real hayot hodisalarini bola faol ravishda takrorlaydi, yaratadi, ularni boshdan kechiradi, bu esa uning hayotini boy mazmun bilan to‘ldiradi, uzoq yillarga iz qoldiradi.

*Drammalashtirilgan o‘yinlarda*_mazmun, rollar, o‘yin harakatlari ma’lum bir adabiy asar, ertak va hokazolarning syujeti va mazmuni bilan belgilanadi. Ular syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarga o‘xshaydi: har ikkala o‘yin xili mazmunida voqea, hodisalarni, xatti-harakatlar va kishilarning o‘zaro munosabatlari va hokazolarni shartli ravishda tasvirlanishi yotadi, shuningdek, ijodiylik elementlari bo‘ladi. Drammalashtirilgan o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bolalar ertak yoki hikoyaning syujetiga qarab muayyan rolni bajaradilar, voqealarni aniq izchillikda takrorlaydilar.

Ko‘pincha dramalashtirilgan o‘yinlar asosini ertaklar tashkil etadi. Ertaklarda qahramonlar obrazi yaqqol ifodalanadi, ular bolalarni hatti-harakatlarning (voqealarning) jo‘shqinligi va aniq asoslanganligi bilan jalb qiladi, harakatlar biri ikkinchisini aniq almashtirib turadi va bolalar ularni bajonu dil takrorlaydilar. Bolalar uchun sevimli bo‘lgan “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq”, “Uch ayiq” kabi xalq ertaklarini dramalashtirish ancha oson. Dramalashtirilgan o‘yinlarda dialogli she’rlardan foydalaniladiki, bular tufayli asar mazmunini rollar bo‘yicha qayta takrorlash

imkoniyati yaratiladi.

Drammalashtirilgan o‘yinlar yordamida bolalar asarning g‘oyaviy mazmunini, voqealar mantiqi va izchilligini, ularning rivojlanishi va sababli bog‘liqliklarini yaxshi o‘zlashtirib oladilar. Umumiy kechinmalar bilan birlashgan bolalar bir-biriga muvofiq bo‘lgan harakatlarni qilishga, o‘z istaklarini jamoa manfaatlariga bo‘ysundirishga o‘rganadilar.

Qurilish o‘yini – bolalarning faoliyati bo‘lib, uning asosiy mazmuni tevarak-atrofdagi hayotni xilma-xil qurilishlarda va ubilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarda aks ettirishdan iborat.

Qurilish o‘yini ma’lum darajada syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinga o‘xshaydi va uning boshqa bir xili sifatida qaraladi. Ularning manbai bitta – tevarak-atrofdagi hayot. Bolalar o‘yinda ko‘prik, stadion, temir yo‘l, teatr, sirk va o‘pgina boshqa narsalarni quradilar. Qurilish o‘yinlarida ular faqat atrofdagi narsalarni, qurilishlarni (ularga taqlid qilgan holda) tasvirlab qolmaydilar, balki o‘zlarining ijodiy g‘oyalarini yaratadilar, konstruktiv vazifalarni individual hal etadilar. Syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar bilan qurilish o‘yinlarining o‘xshashligi shundan iboratki, ular bolalarni umumiy qiziqishlar, birgalikdagi faoliyat asosida birlashtiradi va jamoaviy o‘yin hisoblanadi.

Bu o‘yinlar o‘rtasidagi farq shundan iboratki, syujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarda avvalo turli xil hodisalar aks ettiriladi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar o‘zlashtiriladi, qurilish o‘yinida esa bolalarni kishilarning texnikani qo‘llab va undan foydalanib bajaradigan tegishli faoliyatlari bilan tanishtirish asosiy narsa hisoblanadi.

O‘yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. O‘yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqini ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. O‘yinlarda ma‘lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O‘yinda ma’lum bir didaktik maqsad qo‘yiladi va bu maqsadga erishilishi o‘quvchilarda ma‘naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. O‘yinlar hamma vaqt ham o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rsatgichi hisoblanadi.

O‘yin – muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda bola qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. O‘yinlar bolaning turli-tuman qobiliyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

“U kim? Bu nima?”

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo‘yiladi. Tarbiyachi shu predmetlardan birortasini ta’riflaydi bolajonlar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o‘ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o‘ynaydilar.

(Javob: “Koptok”)

2-variant: U barchaning o‘rtog‘idir. Onalarimiz ham otalarimiz ham Uni juda yaxshi ko‘radilar.

(Javob:”Kitob”)

*3-varian*t: U shunday narsaki bizga vitaminlarga boy mevalar beradi. Xohlasak stol yoki stul ham bo‘lishi mumkin.

(Javob:”Daraxt”)

“Topag‘on”

Tarbiyachi biror belgi asosida savol beradi. Bolalar shu belgini o‘ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi.

Bu o‘yinni o‘tkazish jarayonida bolalarning so‘z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

1 - variant: Savol: Nima oq rangda?

Javob: Qog‘oz, daftar, surp, bulut, parda, buvumning sochlari, qor.

2 - variant: Savol: Nima yumshoq?

Javob: Non, xamir, yostiq, ko‘rpa, paxta.

3 - variant: Savol: Nigora nima qilayapti?

Javob: Kitob o‘qiyapti, kir yuvayapti, qoshiq aytayapti.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar juda qiziquvchan bo’ladilar. Ko’pgina narsalarni bilishga qurblari yetmasa ham, atroflaridagi turli narsa va hodisalarning mohiyati paydo bo’lishi hamda sababiy boglanishlariga qiziqadilar. Ular hamma narsaning siridan xabardor bo’lgilari keladi. Bu ularning bilish jarayoni bilan bogliq bo’lgan intellektual qiziqishlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-debabrdagi “2017 -2020 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

2. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan talablar. T.: 2018

TURKISTON XIX ASR OXIRI XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA

Bo'riyev Behro'zbek Iqboljon o'g'li
Farg‘ona Davlat Universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7344844

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida Turkiston hududi, ijtmoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti haqida ma’lumot berildi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, paxta xomashyosi, mustamlaka, Aleksandr II, O’rta Osiyo, Turkiston general-gubernatorligi, Duxovskoy

KIRISH

